



**UNITED
STATES OF
AMERICA**



**PRINCIPAL ISSUES OF
SCIENTIFIC RESEARCH
AND MODERN EDUCATION**

2023

IN VOLUME #2 ISSUE# 7 MAY



WWW.WOCONFERENCES.COM





EDITORIAL

Editor: [Ralf Schlauderer](#)

**Professor, Weihenstephan-Triesdorf University of Applied
Sciences, Germany**

admin@geniusjournals.org

Editor: [Henry Mattnews](#)

Professor, Writtle University College, UK

admin@geniusjournals.org

Editor: [Jacques Bulchand-Gidumal](#)

**Associate Professor of Digital World. TIDES. University of
Las Palmas**

admin@geniusjournals.org

Editor: [Milen Filipov](#)

**Assistant Professor of Public Relations, KIMEP University,
Republic of Kazakhstan**

admin@geniusjournals.org

Editor: Rosa M. Batista Canino

**Vice rectorado de Empresa, Emprendimiento y Empleo,
ULPGC**

rbatista@dede.ulpgc.es

Editor: [Farhod Ahrorov](#)

**Professor, Samarkand Veterinary Medicine Institute,
Uzbekistan**

admin@geniusjournals.org

Editor: [Nooraini Youp](#)

Open University Malaysia, Director Taiping Learning Center,





Doctor of Philosophy in Management

nooraini_youp@oum.edu.my

Editor: [Hadion Wijoyo](#)

***Associate Professor, High School Informatics, and Computer
Management Dharmapala Riau, Indonesia***

hadion.wijoyo@lecturer.stmikdharmapalariau.ac.id

Associate Professor, University of Molise

fradivi@unimol.it

Editor: [Makhabbat Ramazanova](#)

***[Assistant Professor at Universidade Portucalense \(UPT\), PhD
in Tourism](#)***

admin@geniusjournals.org

Editor: [Dr.M. Ihsan Dacholfany, M.Ed](#)

***[Asist.Prof, Managemen Education and Islamic Education,
Ahmad Yani Street, No.162, Rt: 34.Rw: 16. Iring Mulyo Metro
City, Lampung Indonesia](#)***

Email: mihsandc@ummetro.ac.id

Editor: Prof. [Dr. VASA, László](#)

[Széchenyi István University, Hungary](#)

admin@geniusjournals.org





№	TABLE OF CONTENTS	
1	MUSTAQILLIK DAVRIDA INSON ONGI VA QALBI UCHUN KURASHLAR Matupayev Sherzod Mammatsoliyevich	6
2	ОСНОВАНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА РЕЦИДИВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ Курбанов Шерзод Мураткобилович	11
3	„ONA YURTIM – O‘ZBEKISTONIM” Jo‘rayeva Malohat Odiljon qizi	20
4	TELEKOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI YURITIISH VA AMALDAGI HOLAT TAHLILI Хусанов Улуғбек Нишонович	23
5	ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ГЛОБАЛЬНОГО ЯЗЫКА В МИРЕ. АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК Рустамова Зарина Рустамовна	29
6	YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNI SOLIQA TORTISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI Axmedov Timur Robbim o‘g‘li	34
7	THE ARTIST THAT OUR PEOPLE LOVE KHursanoy TILLANAZAROVA	39
8	«TA’LIMNING SERMAHSUL QIRRALARI» Axmedov Nabijon Aman o'g'li	42
9	РОЛЬ МАЛЫХ ГОРОДОВ В РАЗМЕЩЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ. Есиргапов Фарходжон Бобирович	46
10	DZYUDOSHILARINING MASHG‘ULOT JARAYONLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH Djumanov Bakhitjan Muxtarovich, Bo‘riyev Zafar Raximovich , Melimuratov Azizbek Xolmurod o‘g‘li	52
11	KURASHCHILARNI MASHG‘ULOT JARAYONIDA TEXNIK MAHORATNI OSHIRISH Djumanov Bakhitjan Muxtarovich, Anarbayerev Malik axmedovich , Melimuratov Azizbek Xolmurod o‘g‘li	58
12	KURASH MASHG‘ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR Djumanov Bakhitjan Muxtarovich, Anarbayerev Malik Axmedovich , Abdikulov Jandos Nurjon o‘gli	64
13	KURASHCHILARINI MASHG‘ULOT JARAYONLARINI TASHKILLASHTIRISH Tursunov Shuhrat Sabitjanovich, Tashnazarov Djasur Yuldashevich, Nigmatov Ibrohim Mahmud o‘g‘li	69



14	KURASHCHILARINING TAKTİK TAYYORGARLIGI TAKOMILLASHTIRISH Abdikulov Jandos Nurjuanovich, Melimuratov azizbek Xolmurod o'g'li , Nigmatov Ibrohim Mahmud o'g'li	74
15	“ELEKTROTEKNIKA VA ELEKTRONIKA” FANINI O‘QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISH MANBALARI. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich., Nizomov Nozimjon Zafar o'g'li	79
16	ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТ ФАОЛИЯТИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ МЕХАНИЗМИ Сабурова Мафтуна Ибодулла қизи	86
17	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA‘LIM TIZIMI VA UNING TARIXIY, HUQUQIY ASOSLARI Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna	91
18	HUQUQSHSHUNOS PEDAGOGNING KASB ETİKASI Usmonova Odina Habibovna	97
19	ТРЕБОВАНИЯ К ТЕКСТУ ЮРИДИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ Абдуллаева Муяссархан Салахиддиновна	102
20	МАКРОИҚТИСОДИЙ БАҲАҚАРОРЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШДА СОЛИҚ МАЪМУРИЯТЧИЛИГИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ Ҳайдаров Соҳибхон Ҳорун ўғли, Махмудов Худоевхон Жамол ўғли	108
21	РОЛЬ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СОЗДАНИИ ДЕЛОВЫХ ДОКУМЕНТОВ Камолова Шахло Тиркашевна	112
22	TARJIMASHUNOSLIKNING PRAGMATİK JIHATLARI DUBLAJ VA EKRANDAN TASHQARI TARJIMA HAQIDA Xaydarova Umida Tursunboyevna	117
23	FILM TARJIMASINING PARADIGMATİK JIHATLARI (DUBLYAJ VA EKRANDAN TARJIMA) Xaydarova Umida Tursunboyevna	121
24	18 YOSHGACHA BO‘LGAN BOLALARDA MIYA FAOLIYATI SUSTLIGI SABABLARI Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li, Rahimova Mubinoxon Rustamjon qizi	124
25	TASHKILOTDA KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI SAQLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH Tursunov Mahmudjon Mengaliyevich, Abidov Abdujabor Abdulhamidovich	134
26	EPIFIT MIKROORGANIZMLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR VA OLIV BORILGAN TAJRIBALAR Davronov Qaxramon Davronovich, Mirzayeva Zubayda Ashurovna, Sattarov Abdumurod Sattarovich	140
27	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI	146





	Samariddinova Mahfuza	
28	TOG'-KON VA GEOLOGIYA MUHANDISLIGI.KON SANOATI, QAZILMA ISHLARI. Abrayev G'ayrat Ismoil o'g'li, Boyxonov Aslbek Nurmamat o'g'li, Mixliyev Jo'rabek Musurmon o'g'li	151
29	QATLAMLARNI QIYA STVOLLAR ORQALI SHTOLNYALARGA ARATISH ORQALI TOPPISH Bo'riyev Ilyos Muhiddin o'g'li, Abdusattorov Shoxmuhammad Abduxoshim o'g'li, Madibraimov Xolmamat Nimatullo o'g'li	157
30	ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ – ЖЕНЬШЕНЬ. Кобилова Дилноза Зариповна , Базарова Жамила Алижоновна	164
31	FACTORS OF IMPROVING CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE GERMAN LANGUAGE Shamsiddinov Daniyori,Yakhoyeva Gulnora Bakhtiyorovna	167
32	MONEY: INFLATION, ITS ECONOMIC MODELING Hamroyev Khurshid Hamzayevich, Mirzayeva Mavlyuda Narmuratovna	172
33	THE EFFECT OF MORAL-AESTHETIC EDUCATION IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS Umida Mamurjanovna Bazarova, Tullaeva Gulmira Sobirovna	176
34	TCP/IP STEKIDA MA'LUMOT PAKETLARNI UZATISH TAMOYILLARI VA ULARNING TAHLILI Xamdamov Utkir Rahmatullayevich, Boymirzayev Abbos Shavkatjon o'g'li	184
35	MEHMONXONA MOLIYAVIY BOSHQARUVINING RIVOJLANTIRISH OMILLARI Nazarova Mushtariy Axadjon qizi	197
36	TARIX FANINI O'QITISHDA XALQARO YANGI METODIK USULLAR Djanikulov Xurshid Abdumajidovich	202
37	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ РИВОЖЛАНИШ ШАРОИТИДА ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАРДАН ОЛИНАДИГАН ДАРОМАД СОЛИҒИНИ ҲИСОБЛАШ МУАММОЛАРИ Умаров Достон Умар ўғли	210
38	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АКЦИЗ СОЛИҒИДАГИ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ Abdurashidov Abdusamad Abdurahmonovich	216





MUSTAQILLIK DAVRIDA INSON ONGI VA QALBI UCHUN KURASHLAR

Matupayev Sherzod Mammatsoliyevich

Annotatsiya: Sobiq tuzumdan yangi davrga o'tish davrida g'oyaviy bo'shliqni to'ldirishga urungan soxta oqimlar va kuchlarning maqsadi yo'lidagi harakatlari hamda Mustaqil O'zbekistonning o'z istiqlool yo'li, milliy g'oyasi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: irqchilik, ratsizm, terrorizm, globallashuv, buzg'unchi g'oya, xizbu-taxrir, vahhobiylilik, ekstremizm, bozor iqtisodiyoti, shok terapiyasi, mustaqillik, sobiq tizim, milliy meros.

Kirish

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalar, umuminsoniy manfaatlar bashariyatning asriy orzusi bo'lgan yorug' kelajak uchun xizmat qiladi. Lekin hozirgi vaqtda dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor kuchlar bor bo'lib, ular neofashizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi kuchlar va oqimlardir. Bunday g'ayriinsoniy, buzg'unchi g'oyalar xalqlar boshiga so'zsiz kulfat keltirib, insoniyatning tinchligi, osoyishtaligini buzib, odamlar boshiga turli balolar yog'dirmoqda. "Globallashuv jarayoni kuchli sur'atlar bilan o'sib kelmoqda. Bundan esa hech bir davlar chetda turolmaydi. Bugungi kunda zamonaviy axborot manbayi shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Ta'bir joiz bo'lsa shuni aytish kerakki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro





poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega”¹.

Butun yer yuzi odamzod uchun yagona makondir. Ammo tarixan ma‘lumki muayyan hududni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo‘lgani ma‘lum va bu jarayonda qurollar ham takomillasha borgan. XX asrgacha urushlar asosan bir davlat ichida, ikki davlat orasida, nari borsa bir mintaqada bo‘lardi. Bu jarayonlarda fashizm avj oldi va keng tarqala bordi. Taraqqiyotga nisbatan xavf-xatarlardan biri aynan fashizmdir. Unda irqchilik, millatchilik kabi illatlar hukm suradi. Bunda insonlarning tenglik, erkinlik, demokratiyaga zidlikni ko‘rish mumkin.

Irqchilik “Ratsizm” (rasa - irq) so‘zidan kelib chiqqan. XVII asrdan boshlab Yevropada “insoniyat naslini” turli irqiy guruhlariga, jumladan ”oq”, “qora”, va “sariq” irqqa ajratish uchun qo‘llanila boshlangan.

Jamiyatda siyosiy tuzum bir davrdan ikkinchi davrga o‘tganida o‘sha yerda g‘oyaviy bo‘shliq vujudga keladi. Bu davrda turli mafkuralar bu hududda o‘z ta‘sir doirasini o‘tkazishga urinadilar. 1990-yillarda O‘zbekistonda aynan mana shu bo‘shliq vujudga keldi. Uning xususiyatlari quyidagicha:

1. Bolshevistik - kommunistik mafkura batamom tanazzulga yuz tutdi. Uning o‘rni bo‘shab qoldi.
2. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo‘lsa-da, uning mafkurasi hali to‘la-to‘kis shakillanmagan edi.
3. G‘oyaviy bo‘shliq bo‘lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar xuruji boshlandi.
4. Mustaqil mafkuramiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afg‘oniston va boshqa yaqin hududlardagi beqaror vaziyatdan foydalangan ba‘zi ekstremistik kuchlar, terrorchi to‘dalar o‘z jinoiy maqsadlarni amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga uruna boshlagan edi.

Vahhobiylilik, Hizbut-tahrir (Hizbut-tahrir al-islomiy), Akromiylilik, Adolat

¹ Karimov. I.A “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma‘naviyat” 2008-yil 112-113-betlar.





uyushmasi, Islom lashkarlari, Tavba kabi turli zararli g'oyalarga asoslangan kuch va oqimlar mamlakatimiz tinchligiga tahdid sola boshladi. Ular dinni niqob qilib oldilar. Vahhobiylar inson ongini zaharlash va o'zining qabix maqsadini amalga oshirish uchun yoshlardan va o'z xatti-harakatlari natijalarini anglay olmaydigan shaxslar va olib borilayotgan siyosatdan norozi bo'lganlarni o'zlariga og'dirib olishgan. "Masalan, Vahhobiylik g'oyalariga XVII asr 40-yillarida Arabiston yarim orolida Muhammad ibn Abdul-Vahhob asos solgan. "Vahhobiylik islom g'oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib go'yoki islomni payg'ambar davriga davridagi "asl holatiga qaytarish", ya'ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog'I ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari suradi"². Dastlab, joylardagi masjidning imom-xatibligi uchun, keyinchalik esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurashdi, islom siyosiy partiyasini tuzishga harakat qildi. "Asta-sekin O'zbekistonni islom respublikasi deb deb e'lon qilish, mintaqamizda xalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldilar"³.

"Xizbut-tahrir al-islomiy ham sobiq mafkura tanazzulga yuz tuta boshlaganidan boshlab, g'oyaviy bo'shliq sharoitida muayyan kishilar ongi, dunyoqarashiga ta'sir o'tkaza boshladi. Tashkilot asoschisi Taquyiddin Nabahoniy bo'lgan. 30 dan ziyod davlatda faoliyat yuritayotgan bu harakat ham xalifalikni tiklash, bugungi dunyoda dunyoviy davlatlarni yo'q qilish, demokratiya prinsiplarini rad etish, qonun ustuvorligi o'rniga shariat aqidalarini joriy etish, saylov tizimini inkor qilishdan iborat. 90-yillarning boshida O'zbekistonga go'yo g'oyaviy bo'shliqni to'ldirish uchun harakat boshladi. Maqsadi esa o'zining mafkuraviy jihatdan uzoqni ko'zlash, odamlar ongi va qalbini zabt etish edi"⁴. Ular avvalo dunyoqarashi hali to'la shakillanmagan, sodda yoshlarga islom dini, uning ibodat amallari, Qur'oni Karimni o'rgatish, turli diniy manbalardan saboq berish bahonasida o'z harakatlarini o'tkazishga harakat qilishgan. "Odatda 3-4 kun islomni

² Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushincha va tamoyillar. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2001-yil. 105-bet.

³ O'sha joyda 106-bet.

⁴ Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushincha va tamoyillar. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2001-yil 106-bet.





o'rgatib, keyin asl maqsadiga o'tishgan. Ularning "Al-Vay", "Ong" jurnallari "Islom nizomi", "Xalifalik", "Demokratiya - kufr nizomi", "Sabr" kabi kitob va risolalari bor"⁵. Bu oqim o'zlari diniy ta'lim bergan yoshlarga vaqti kelib terrorchilik harakatlari uchun ham tayyorlab borganlar. Qo'poruvchi lik harakatlarini oib borishgan. Masalan, 2000-yilda Sirdaryo, Uzun, Bo'stonliq tumanlarida qurolli xurujlar qilgan. Aslida esa bu kabi terrorchi tashkilotlar piramida shaklida shakllantirilgan bo'lib, har bir pog'ona o'zidan yuqori turuvchi guruhni bilmaydilar. "Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Olimlar, mutaxassislar, keng jamoatchilik, el-yurtimiz vakillari bilan birgalikda o'ylab erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishda tarqqiy etgan davlatlarning o'zini oqlagan ilg'or tajribalarini chuqur o'rganib ish olib bordi. Shuningdek, "Inson qalbiga yo'l ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, otalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yagona bir buyuk zot o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz"⁶. "Insonlarning bu jamiyatda yashashdan maqsadi – farovon turmush kechirishdan iborat. Vatanimizdan yetishib chiqqan qomusiy allomalar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'lishi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida ilg'or ilmiy qarashlarni ilgari surganlar"⁷.

Xulosa. Bugungi kunda tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi insonning erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafk uraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma'naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg'ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya,

⁵ Milliy istiqloq goyasi: asosiy tushincha va tamoyillar. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2001-yil 106-bet.

⁶ Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat" 2008-yil. 130-bet.

⁷ V. QO'CHQOROV, O. MAHMUDOV, Z. ZAMONOV "MA'NAVIYAT ASOSLARI". Toshkent «Yangi yo'l poligraf servis» 2017-yil. 24-bet.





telekommunikatsiya, OAV, Internetdan ustalik, g'irromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi. Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz, tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, jismonan va ma'nan sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.





ОСНОВАНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА РЕЦИДИВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Курбанов Шерзод Муратқобилович,
соискатель Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Одной из наиболее сложных и дискуссионных проблем, связанных с ответственностью лиц, совершающих рецидив преступлений, является вопрос об основаниях их уголовной ответственности. Чтобы ответить на него, следует, *во-первых*, определиться с общими основаниями ответственности за совершение преступления, *во-вторых*, выяснить основания установления повышенной уголовной ответственности при совершении нескольких преступлений.

Если говорить об общих основаниях уголовной ответственности рецидивистов, то они, на наш взгляд, не могут чем-либо отличаться у рецидивистов и лиц, совершивших одно или даже несколько преступлений. В этом отношении профессор Рустамбаев М.Х. считает, что «понятие основано на рецидиве преступлений как явлении, а не на рецидивисте, как субъекте, что соответствует принципу равенства граждан перед законом (ст.5)»⁸. Ведь в соответствии с принципом справедливости: «Никто не может нести уголовную ответственность дважды за одно и то же преступление» (ч. 2 ст. 8 УК РУз), а основанием такой ответственности согласно принципа неотвратимости: «Каждое лицо, в деянии которого установлено наличие состава преступления, должно подлежать ответственности» (ст. 10 УК РУз).

Более спорным является вопрос о том, каковы основания повышенной

⁸ Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть. – С. 305.





уголовной ответственности за рецидив преступлений. По этому поводу споры специалистов не прекращаются и поныне. Так, П.Ф. Гришанин считал, что если осужденный не исправился, намерен вновь совершать преступления, то удержать его от этого способна лишь угроза более строгим наказанием, чем-то, которое угрожало ему до осуждения. Повысить эффективность уголовного закона можно путем усиления в нем уголовной ответственности рецидивистов⁹. Аналогичную позицию по обсуждаемому вопросу занимал В.Д. Филимонов¹⁰. Позиция Н.С. Таганцева по этому вопросу заключалась в том, что основанием повышенной уголовной ответственности рецидивиста является наличие у него «устойчивой злой воли» на совершение нового преступления¹¹.

Судимость – это «шлейф» предыдущего преступления, за которое лицо уже было осуждено и, как правило, отбыло наказание (большинство новых преступлений совершается после отбытия или освобождения от наказания). Представляется, что применительно к этим нормам принцип справедливости (ч. 2 ст. 8 УК РУз) нарушается, хотя выполняется требование ч. 1 ст. 8 УК РУз в плане учета личности виновного для вынесения справедливого наказания.

Повышенная общественная опасность личности судимого лица и, в частности, рецидивиста, имеет уголовно-правовую оценку только в связи с совершением данным лицом деяния, содержащего все признаки состава преступления, и должна влиять только на вид и размер наказания, предусмотренного санкцией статьи Особенной части УК РУз за совершение данного преступления. Рецидив в соответствии с ч. 1 ст. 56 УК РУз является отягчающим обстоятельством, и не должен влиять на квалификацию

⁹ См.: Гришанин П.Ф. Общественная опасность личности отдельных категорий преступников. - М.: Академия управления МВД, 1983. - С. 37.

¹⁰ См.: Филимонов В.Д. Общественная опасность личности отдельных категорий преступников. – Томск: СГУ, 1973. - С. 42.

¹¹ См.: Таганцев Н.С. О повторении преступлений. - СПб., 1867. - С. 32.





преступления¹².

В связи с этим следует заметить, что ученые-правоведы, в разное время обращавшиеся к данной проблеме, высказывали различные доводы в пользу установления повышенной уголовной ответственности рецидивистов из-за присущей их личности повышенной общественной опасности. Так, С.П. Бузынова определяла общественную опасность личности преступника как «антисоциальную ориентацию личности, выразившуюся в совершенном преступлении. Она выступает в качестве главной определяющей черты личности преступника на момент совершения им преступления и складывается из общественной опасности совершенного преступления и совокупности антисоциальных свойств и качеств лица, проявляющихся в прежнем его поведении, поступках до совершения преступления»¹³.

А.Б. Сахаров и В.Д. Филимонов полагали, что общественная опасность личности преступника «представляет собой сравнительно устойчивую угрозу совершения лицом преступления»¹⁴. Б.В. Волженкин говорил об общественной опасности личности как о наличии «антисоциальных качеств»¹⁵.

Наиболее развернутое определение антисоциальной установки личности дано П.С. Дагелем, который определяет ее следующим образом: «Под антисоциальной установкой личности следует понимать наличие в ее сознании антиобщественных взглядов, принципов и привычек и готовность действовать в соответствии с ними»¹⁶. Готовность действовать, на наш взгляд, должна занять первое место, так как именно в ней и заключается квинтэссенция

¹² Такая позиция была закреплена еще в постановлении Пленума Верховного суда Республики Узбекистан № 16 от 19 июля 1996 года «О практике назначения мер уголовного наказания» //Сборник постановлений Пленума Верховного суда Республики Узбекистан.

¹³ Бузынова С.П. Множественность преступлений. - М.: Юридическая литература, 1989. - С. 28.

¹⁴ Сахаров А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. - М.: Юридическая литература, 1961. - С. 169; Филимонов В.Д. Общественная опасность личности преступника. Томск: СГУ, 1970. - С. 34.

¹⁵ См.: Волженкин Б.В. Общественная опасность личности как криминологическая и уголовно-правовая категория. Теоретические проблемы учения о личности преступника. - М.: Юридическая литература, 1979. - С. 74.

¹⁶ Дагель П.С. Учение о личности преступника в советском уголовном праве. - Владивосток: ДВГУ, 1970. - С. 28.





антиобщественной установки, хотя она (готовность действовать) и является производной от взглядов, принципов, привычек, которые сами по себе не могут быть признаны социально опасными.

Готовность не к любому действию может интересовать нас с позиции изучения социальной опасности, а только готовность к социально значимому действию, которое являлось бы вредным для общества.

В ряде работ, посвященных проблеме общественной опасности преступления и личности преступника, не отрицается «связь между опасностью преступления и опасностью личности преступника...», но в то же время ставится под сомнение право на существование понятия «опасность личности преступника»¹⁷. Свое реальное выражение общественная опасность личности находит в конкретном поведении: пьянстве, наркомании, совершении дисциплинарных или административных проступков, совершении в прошлом преступления и др.¹⁸.

Если общественная опасность личности нашла свое выражение в совершении преступления, появляется личность преступника. Совершение преступления есть единственный критерий, на основе которого проводится разграничение между понятиями «личность» и «личность преступника». Поэтому в определенной мере понятие «личность преступника» является условным, но оно позволяет выделить определенную группу людей, обладающих общим признаком. После совершения преступления личность остается та же. Она получает лишь дополнительный характеризующий ее признак – совершение преступления.

Из позиций авторов учебников по Криминологии, норм, регулирующих рассматриваемую проблему и постановлений Пленума Верховного суда

¹⁷ См.: Яковлев А.М. О понятии «опасность личности преступника» // Проблемы совершенствования уголовного законодательства. - М.: МВШ МВД, 1984. - С. 56; Гришанин П.Ф. Ответственность преступников-рецидивистов по советскому уголовному праву: Учебное пособие. - М.: МВШ МВД, 1974. - С. 16.

¹⁸ Ёразалиев М.Қ. Историческое развитие алкоголизма и наркомании как один из факторов преступности //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - Москва, 2015. - С.179-182.





Республики Узбекистан можно сделать вывод о том, что нельзя раскрыть сущность совершенного преступления, не анализируя личности того, кто его совершил. Цель уголовного наказания и задачи, стоящие перед правоохранительными органами в том, чтобы достигнуть такого состояния личности, при котором снижалась бы, а в идеале – исключалась готовность совершить новое преступление.

Рассматривая основной критерий общественной опасности личности рецидивиста, необходимо учитывать фактические особенности всех преступлений, за которые было осуждено то или иное лицо. Важно, чтобы они были умышленными и судимости за них не были погашены или сняты. Это позволяет оценить общественную опасность его личности в развитии, что делает судебную оценку личности виновного более точной. Количество судимостей, количество совершенных виновным умышленных преступлений, характер и степень их общественной опасности выступают как важнейшие показатели общественной опасности личности рецидивиста¹⁹.

Низменные мотивы (ревность, месть, заранее обдуманый характер умысла, злобность, разнузданность виновного, проявляющаяся в неоднократном совершении преступлений и т.п.) значительно повышают опасность преступлений и крайне отрицательно характеризуют личность рецидивиста.

Вопрос о признании рецидивным преступления, совершенного в соучастии, должен решаться строго индивидуально. В этом случае особое значение приобретает оценка степени и характера участия в преступлениях, совершенных группой лиц²⁰. Необходимо также иметь в виду и то обстоятельство, что общественная опасность личности может быть и

¹⁹ См.: Мирзаев А. Жазонинг муқаррарлиги //Тафаккур. – Тошкент, 2002. - №4. – С. 81-82.

²⁰ См.: Рустамбаев А.М. Вопросы соучастия при групповом сексуальном насилии //Магистратларнинг илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2004. - № 7. – С. 143-152.





различных степеней, т.е. «у одних людей антисоциальные взгляды и установки оказываются глубже, сильнее, устойчивее, у других – слабее, поверхностнее. А это, естественно, во многом определяет поведение человека»²¹.

Сделаем некоторые выводы из вышесказанного. Представляется более верной концепция, предложенная В.Д. Филимоновым, что общественная опасность деяния и общественная опасность личности существуют достаточно отдельно, но говорить о возможности полного разрыва между общественной опасностью лица и общественной опасностью деяния нет никаких оснований²².

Эти две составляющие подчиняются диалектическому принципу единства и борьбы противоположностей, которые взаимодействуют друг с другом и взаимно влияют друг на друга. Общественная опасность деяния и общественная опасность личности связаны между собой такими внутрипроникающими нитями, что разрывать их представляется так же абсурдно, как, например, Общую и Особенную часть УК РУз.

Следует задаться вопросом справедливо ли на основании обладания рецидивистами повышенной общественной опасности личности за совершение ими преступления, тождественного совершенным лицами, осужденными впервые, повышение уголовной ответственности и, как следствие, наказания?

Мы придерживаемся мнения, что при равной тяжести преступлений, совершенных впервые осужденным и рецидивистом, последний должен нести более строгую уголовную ответственность. Если ранее осужденный не исправился, намерен вновь совершать преступление, то удержать его от этого способна лишь угроза наказанием более строгим, нежели то, которое угрожает впервые осужденному.

²¹ См.: Сахаров А.Б. Указ. соч. - С. 162.

²² Филимонов В.Д. Указ соч. - С. 44.





Рассматривая повторность совершенного преступления рецидивистом профессор Рустамбаев М.Х. справедливо считает: «Совершение повторного умышленного преступления после осуждения свидетельствует о том, что лицо не встало на путь исправления, несмотря на уже оказанное на него предупредительно-воспитательное воздействие. Поэтому такое преступление обуславливает более строгую реакцию со стороны общества и государства, необходимость применить дополнительные меры уголовной ответственности и наказания к рецидивистам»²³.

В соответствии с действующим законодательством правовыми основаниями повышенной уголовной ответственности рецидивиста являются соответствующие нормы Уголовного кодекса Республики Узбекистан, позволяющие рассматривать рецидив преступлений в качестве отягчающего квалифицирующего обстоятельства, а также назначать виновным более строгие виды наказаний.

В интересах предупреждения возможного рецидива преступлений уголовный закон должен содержать четкие положения о повышенной уголовной ответственности рецидивистов. Правовая пропаганда такого законодательства может удержать хотя бы часть судимых, но не исправившихся лиц от рецидива преступлений. В то же время, суд должен назначать рецидивисту не только особый, повышенный размер наказания, как правило, срок лишения свободы, но и выбирать более строгий режим содержания в учреждениях по исполнению наказания, учитывая при этом положения ст. 50 УК РУз.

Таким образом, повторное совершение преступления лицом, ранее судимым за противоправное деяние, является особым криминологическим и социальным явлением. Выделяют его, в первую очередь, потому, что именно оно несет повышенную опасность для общества и государства, и

²³ Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть. – С. 306.





предопределяется устойчивым нежеланием лица жить по закону и соблюдать этические и другие нормы поведения. Одно это обстоятельство уже оправдывает выделение в Кодексе из всех видов повторности именно рецидив преступлений.

1. Из-за существенных расхождений среди ученых-правоведов к такому социальному явлению, как рецидив преступления до настоящего времени не сложилось единого мнения о нем, поэтому ученые разных наук различают легальный, криминологический, пенитенциарный рецидив.

2. Автор считает справедливым вывод о том, что основанием уголовной ответственности рецидивиста является совершение деяния, содержащего все признаки состава преступления.

3. Предлагается возраст, указанный в ч. 6 ст. 34 УК РУз (до 18 лет), привести в соответствие с возрастом, указанным в ч. 1 ст. 17 УК РУз, т.е. до 16 лет.

4. Признаки рецидива, усматриваемые в его деянии, на квалификацию преступления не влияют, а имеют значение только для назначения более строгого вида и размера наказания.

5. Квалификация судом рецидива преступлений влечет ряд правовых последствий по УК РУз.

6. Правовым основанием повышенной уголовной ответственности рецидивиста является наличие в уголовном законе норм, позволяющих рассматривать рецидив преступлений в качестве отягчающего обстоятельства, а также назначать виновным более строгие виды наказаний.

7. В определенной мере уголовно-правовое понятие «личность преступника» является условным, однако оно позволяет выделить определенную группу людей, обладающих общим признаком.

8. Учитывая различия в предмете и методе правового регулирования, криминологическое понятие рецидива существенно отличается от уголовно-правового. Анализ понятия криминологического рецидива, разработанные





различными учеными-криминологами позволили предложить авторское определение, под которым следует понимать: любую повторную преступную деятельность, осуществляемую лицом, достигшим возраста уголовной ответственности.

9. Социальным основанием повышенной уголовной ответственности рецидивиста является длительное осознание рецидивистом общественной опасности своих деяний, устойчивое желание их совершения, предвидение им, при этом, наступления общественно опасных последствий и, несмотря на государственное порицание, продолжение преступной деятельности.

10. Принимая во внимание обоснованную реальную угрозу рецидивной преступности на общественную безопасность, необходимо разработать Закон Республики Узбекистан «О предупреждении рецидивной преступности». В этих целях предложены конкретные разделы с основными его положениями.





„ONA YURTIM – O‘ZBEKISTONIM”

Termiz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-bosqich 206-guruh talabasi

Jo‘rayeva Malohat Odiljon qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil O‘zbekiston, jannatmakon yurtimizda yaratilayotgan sharoitlar va ulardan to‘g‘ri foydalanish, shu mustaqil yurtga munosib farzand bo‘lish kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, baxt, quvonch, kindik qonimiz, vatan, kelajak, ona yurt, quyosh, ko‘z qorachig‘I, xalq me‘rosi.

Vatan – bu kindik qonimiz to‘kilgan muqaddas tuproq, mo‘jizali maskanlari bilan qalbimizni ich-ichiga kirib brogan, yuraklarimizga jo bo‘lgan, har qarich yerini ko‘zga to‘tiyo aylasa arziydigan gavhardir. Ona vatanimiz misli qimmatli Ko‘hinur olmosi kabi Vatan ichida yashaguvchi bizdek farzandlar, kelajak avlod uchun qimmatli va qadrlidir.

Bulbul ham o‘z tikanzorida yayrab sayraganidek, har qaysi inson ham o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtida yayrab, rohatlanib yashaydi. Vatan inson uchun eng ulug‘ dargoh hisoblanadi. Bizning bobolarimiz ham Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, kerak bo‘lsa, o‘z yurti uchun jonidan ham kechganlar.

Demak, bu yurt uchun har bir farzand jon kuydirmog‘i, kelajagi uchun oz bo‘lsa-da nafi tegadigan inson bo‘lib ulg‘aymog‘i darkor. Bu yurtning suvidan tortib bitta giyohiga qadar qadrlab, uni avaylashimiz kerak. Ona Vatanning qadriga faqat bir soniya bo‘lsa ham musofir bo‘lgan inson yetadi. Vatan tafti aynan shu hissiyotni bosuvchi mehrga chambarchas bog‘liqdir. Ona kabi mehribon, ota kabi kuch-qudratni faqatgina Vatan bera oladi.

Har bir kishi uchun Vatan yagona va takrorlanmas mo‘jiza.





Zaminimizning yagonaligi va betakrorligini asrash uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz lozim. Vatanga muhabbat tuyg'usi bo'lmaganda edi, yurtlar vayron va zamin talo-taroj bo'lgan bo'lar edi. Ammo, vayronagarchilik shohidi bo'layotgan yurtlarni eshitasiz-u beixtiyor „Bizga, Vatanimizga ko'z tegmasin“-deya duo ham qilishga shoshilamiz. Bu zamin ne-ne yovlarga qarshi kurashgan, shahid bo'lib kelgan ota-bobolar ruhi oldida qarz dordir.

„Vatan qadrini – vatangado musofir biladi“-deydi dono xalqimiz. Bobokolonimiz buyuk imperiya asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ham aynan shu tuyg'u azobida to o'gunga qadar yo'ldosh bo'ldi. O'z asarida ham o'z yurti qovuni hidini olish uchun ming azob chekkani to'g'risida to'xtalib o'tgan edi. Vatan qonimizga, ruhimizga, jonimizga qadalgan ezguliklar majmui, qalbimiz tub-tubiga jo bo'lgan shukronalik tuyg'usidir. Vatan bu bizning go'zal bo'stonimiz – jannatmakon O'zbekiston. Vatan tuyg'usi – bu shu aziz yurtimizni o'zining halol peshona teri bilan obod etgan ajdodlarimizni, bobokolonlarimizni eslamoq demakdir. Vatan tuyg'usi – bu o'z aqli, idroki bilan jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan vatandosh buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, hadis va tasavvuf ilmining sultonlarini unutmazlik demakdir. Ana shunday tuyg'u, hislarga ega bo'lgan inson o'z Vatanini sevmasligi, undan yiroqda bo'lganida uni qumsamasligi mumkin emas. Vatanimizni xalqsiz tasavvur qilish juda qiyin. Yurtimizning mustaqillikka erishuvida eng muhimi, eng asosiysi xalqimiz o'zining sabr-u matonatini, donishmandlik-u bag'rikenglikni, mehnatsevarlik fazilati va bunyodkorlik qudratini belgilangan maqsad sari, avvalo, o'z kuchi va salohiyatiga tayangan holda qatiyat bilan borishga qodir ekanini butun dunyoga namoyon etdi.

Biz yoshlar bugungi kunda yuqorida keltirib o'tganlarimni, ya'ni qadriyatlarni chuqur anglasak, eng muhimi buni harakatlarimiz orqali namoyon qila olsakkina Vatanga sodiq, xos va mos farzand bo'la olamiz. Vatan esa onamiz singari aziz va yagonadir. U bizning ilk va so'nggi aytar so'zimizdir. Har kimning hozir yoki bir marta bo'lsa ham o'zini yaxshi va qulay his qiladigan joyi bor. Bu inson hayotining bir qismi hisoblanadi.





Vatanga bo'lgan muhabbatni yuksaltirishda oilaning ham o'rni beqiyos deb o'ylayman. Vatanimga bo'lgan bu muhabbatni ota-onam, yaqinlarim menga bag'ishlardilar. Vatanim eng zo'r va uning barcha afzalliklari hamda kamchiliklari haqida cheksiz gapira olaman. Men uni qanday bo'lsa ham shunday yaxshi ko'raman. Vatan ota-onalar singari tanlanmaydi. Har bir insonning, har birimizning muqaddas burchimiz – o'z Vatanimizni va uning huquqlarini himoya qilishdir.

Xulosa qilib aytganda men shu jannatmakon, hur O'zbekiston farzandiman. Vatanimning har bir qarich tuprog'i, gul-u giyohi menga ham tegishlidir. Shunday ekan, men ham shu o'lka, shu yurtning kichik bir bo'lagi sifatida yurtimning gullab-yashnashi uchun o'z hissamni qo'shishim lozim. Hozirgi kunda bizga yaratilib berilayotgan keng imkoniyatlardan samarali foydalangan holda oilamning, yaqinlarimning, Vatanimning oldidagi burchlarimni sidqi dildan bajarishim lozim. Mening Vatanim dunyoda yagona va har bir shu yurt farzandiman deguvchilar uchun muqaddas dargoh. Yurtning orzusi biz yoshlar qo'lida ekan, biz shunga munosib avlod bo'lib, jahon arenalarida o'zbek bayrog'ini eng yuqorida hilpirashi uchun harakat qilishimiz zarur.





**TELEKOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA MOLIYAVIY
HISOBOTLARNI YURITIISH VA AMALDAGI HOLAT TAHLILI**

Хусанов Улуғбек Нишонович

Мустақил тадқиқотчи

Ma'lumki, auditorlik tekshiruvda tekshirilayotgan subyekt moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini tasdiqlashning asosiy shartlaridan biri moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining firibgarlik va xatolar ta'siridan xoli ekanligini aniqlashdan iboratdir. Mazkur masala amaldagi 240-sonli "Moliyaviy hisobotlar auditida firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari" hamda 450 sonli "«Audit o'tkazish jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishlarni baholash» nomli auditning xalqaro standartlari asosida tartibga solinadi. Ta'kidlash joizki yuqoridagi me'yoriy hujjatlarda firibgarlik va xatoni aniqlash mazmuni hamda standart talablaridan foydalanish qoidalari aniq va tushunarli mazmunda bayon etilmaganligi bois, ushbu hujjatlar ma'lumotlaridan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari cheklangan deb hisoblaymiz. Qolaversa auditda firibgarlik va uning oqibatlarini moliyaviy hisobotga ta'siri bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda ilmiy asarlarda bayon yetarlicha tadqiq etilmaganligi auditning mazkur sohasini tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot auditida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o'rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holati hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik deganda moliyaviy hisobotni atayin buzib ko'rsatish harakatlarini anglatuvchi yuridik tushuncha tushunilsa, xato deganda esa moliyaviy hisobotdagi atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish harakatlari tushuniladi. Demak auditda firibgarlikni aniqlash (fosh etish) xatoni aniqlash jarayonidan muhimroq sanaladi.

Firibgarlik harakatlari oldindan rejalashtirilgan harakat sanalib, korxonada





faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar (ishchi va xizmatchilar, moddiy javobgar shaxslar, rahbariyat xodimlari) hamda korxona faoliyatiga aloqador yoki manfaatdor bo'lgan uchinchi shaxslar (xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchi va pudratchilar, korxona moliyaviy hamkorlar yoki kontragentlar, bank va korxonaga boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O'z navbatida korxona moliyaviy hisoboti yuqoridagi shaxslar bo'yicha ko'rsatkichlar asosida shakllanishi sababli, ular bo'yicha ko'rsatkichlarda firibgarlik va xatolarning mavjudligi moliyaviy hisobotni noto'g'ri (soxta, ishonchsiz) shakllanishiga sabab bo'ladi.

Xato esa, muomalalarni buxgalteriyada hisob olishda arifmetik yoki mantiqiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi, mas'ul xodimning jiddiy yondashmaganligi oqibatida muomalalarni hujjatlashtirilmasligi, korxona mulki va mablag'lari saqlash va mavjudligining yetarlicha nazorat qilinmasligi, korxona va unda ishlovchi xodimlarning majburiyatlarni noto'g'ri baholashi va ularni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va o'z vaqtida umumlashtirilmasligi, korxona mulki va mablag'lari harakatini buxgalteriya schyotlarida noto'g'ri aks ettirilishi oqibatida moliyaviy hisobot ma'lumotlarini ishonchsizligi va noto'g'ri tuzilishiga olib keladi.

Ko'rinadiki, firibgarlik mas'ul shaxs tomonidan ongli ravishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar me'yorlarini buzish yoki yashirish oqibatida yuzaga kelsa, xato mas'ul shaxsning e'tiborsizligi, malakasizligi, yetarlicha bilim va tajribaga ega bo'lmasligi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini noto'g'ri tushunishi oqibatida shakllanadi. Yuqoridagi standartlar va auditorlik faoliyatiga oid qonun talablariga ko'ra auditorga moliyaviy hisobot auditi jarayonida firibgarlik va xatolarni aniqlashi va ularni moliyaviy hisobotga ta'siri yoki hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatilishi holatlarini baholash majburiyati yuklatiladi. Xulosa qilib aytganda firibgarlik va xatolardan xoli bo'lgan ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan hisobot ishonchli hisobotdir. Korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini baholash esa auditorning asosiy majburiyati hisoblanadi. Bu esa auditordan korxona moliyaviy hisobotida





aniqlangan xato va firibgarlik holatlarining mazmunini, shakllanish sabablarini, firibgarlik va xatoning moliyaviy hisobotga ta'sirini hamda aniqlangan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holatlarini bartaraf etish yoki ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Firibgarlik odatda murakkab va juda ehtiyotkorlik bilan tuzilgan rejalar asosida shakllanadi, ularga misol o'rnida moliyaviy ma'lumotlarni soxtalashtirish, ataylab (qasddan) muomalalarni aks ettirmaslik, nazorat xodimlariga atayin yolg'on (noto'g'ri) ma'lumotlarni taqdim etish yoki haqiqiy holat (ma'lumot)ni yashirish bo'yicha til biriktirish (kelishish) kabi munosabatlar asosida shakllanadi. Auditorga tekshiruvda xato va firibgarlikni o'zaro farqlay bilish hamda ularni shakllanishini aniqlash uning malaka va mahoratiga mos holda shakllanadi. Yuqorida nomi tilga olingan standartda auditorlik tekshiruvi jarayonida firibgarlik harakatlarini aniqlash, uning ta'sirida moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatilishi, tekshiruvda aniqlangan firibgarlik va xatolarni moliyaviy hisobotga ta'sir darajasi, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida firibgarlik harakatlari va xatolarning shakllanishiga qarshi kurash yo'llari hamda firibgarlik va xatolar natijasida moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatilishi holatlarini aniqlash amallari bayon etilgan.

Fikrimizcha, auditor 240 va 450-sonli auditning xalqaro standartlari me'yorlariga muvofiq firibgarlik va xatolarni moliyaviy hisobotga ta'sirini baholash bo'yicha auditorlik umumiy rejasi va dasturida belgilangan vazifalar, ular bo'yicha auditorlik riski darajasini pasaytirishda muhimlik darajasini aniqlashtirish, tekshirilayotgan subyekt rahbariyati hamda ichki nazorat tizimining firibgarlik va xatolarni oldini olish bo'yicha boshqaruv siyosatining natijadorligini tahlil etishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda firibgarlik harakatlarining eng keng tarqalgan quyidagi asosiy turlari mavjud:

ish haqi bo'yicha firibgarlik harakatlari. Bunda ishchining qimmatbaho mulklarini aldash yo'li bilan olish, jumladan: ish haqi xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarini qalbakilashtirish, yo'qotish, mehnat haqi hisobi bo'yicha





inventarizatsiya natijalarini soxtalashtirish, amaldagi qonun hujjatlari va korxonaning ichki tartib-qoidalariga zid mazmundagi shartnomalar tuzish;

to'lov maqsadi va asoslarini soxtalashtirish. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan nafaqalar, kompensatsiyalar, subsidiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni qasddan, yolg'on yoki ishonchsiz (soxta, noto'g'ri) m'lumotlar asosida tayinlanishi hamda to'lanishi;

skimming. Bankomatga maxsus firibgar uskuna o'rnatish orqali korxonaning korporativ yoki ish haqi to'lovlari uchun berilgan bank kartasi ma'lumotlarini o'qish va yozish;

to'lovlarni qalbakilashtirish. To'lovlar uchun haqiqatga to'g'ri kelmaydigan asoslarni ko'rsatish orqali to'lov hujjatlarini soxtalashtirish. Bunday soxta to'lov hujjatlari odatda soliqqa oid va boshqa noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladi;

o'g'rilik – shaxslar mol-mulklari, qimmatbaho buyumlari, pul mablag'lari va tovarlarini qonunchilikka zid bo'lgan tartibda o'zlashtirish, egalik qilish va musodara qilish;

moliyaviy hisobot firibgarligi. Buxgalteriya hisobida foydalanuvchilarni chalg'itish va uning qarorini o'zgartirish maqsadlarida moliyaviy operatsiyalarni qasddan noto'g'ri aks ettirish yoki aks ettirmaslik;

pullarni o'g'irlash. Jismoniy shaxslarning bank kartalaridan pul mablag'larini karta egasi ruxsatisiz (noqonuniy) foydalanish (o'zlashtirish), to'lov kartalaridan xakerlar tomonidan to'lov kartasi ma'lumotlaridan yashirincha yoki aldov yo'li bilan foydalanish, soxta yoki o'g'irlangan to'lov kartalaridan foydalanish;

noqonuniy to'lovlar. Hech qanday maqsadlar va asoslarsiz hisoblangan yoki to'langan rag'batlantirish(mukofot)lar;

noto'g'ri hisob-kitoblar asosidagi firibgarlik. Jismoniy shaxs tomonidan bankka yoki boshqa qarz beruvchi shaxsga haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki asossiz ma'lumotlarni taqdim etish orqali pul mablag'larini o'zlashtirish;

korruptsiyon harakatlar. Mansabdor yoki mas'ul shaxsning vakolatlari,





huquqlari, imkoniyatlari va shaxsiy o'rnatilgan aloqa(munosabat)laridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foydalanilishi.

Yuqoridagi sertifikatlangan firibgarlikni tekshiruvchilar uyushmasi (ACFE²⁴)ning ma'lumotlariga ko'ra, mulk va mablag'larni o'z manfaati yo'lida yoki noqonuniy o'zlashtirilishi natijasida korxonalar 100000 AQSh dollarigacha zarar ko'rishi mumkin bo'lib, firibgarlikning jahon amaliyotida eng ko'p uchraydigan ushbu turi firibgarlik harakatlarining o'rta hisobda 86 foizini tashkil etishi yuqoridagi tashkilot kuzatuvlari asosida isbotlangan. Korxonalar foydalanuvchilarga firibgarlik maqsadlarida moliyaviy hisobot taqdim etishi oqibatida 593000 AQSh dollarigacha zarar ko'rishi va bunday firibgarliklar odatda qasddan yoki korxona rahbariyatining moliyaviy hisobotlarda jiddiy noto'g'ri ko'rsatkichlarni aks ettirishi hisoblanib, tadqiqot natijalari ushbu holatlar kuzatiladigan jami firibgarlik harakatlarining o'rtacha 9 foizini tashkil etishi mumkin.

Sertifikatlangan firibgarlikni tekshiruvchilar uyushmasi(ACFE)ning tadqiqotlariga ko'ra poraxo'rlik, manfaatlar to'qnashuvi va tovlamachilik kabi huquqbuzarliklar oqibatida korxonaga 150000 AQSh dollarigacha zarar yetkazilishi hamda ushbu turkumdagi firibgarliklar o'rta hisobda 50 foiz hollarda kuzatilishi mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. International federation of Accountants [Электронный ресурс] / URL: <https://www.ifac.org/auditing-assurance/clarity-center/clarified-standards>
2. Junaidi, Jogiyanto Hartono. Non-financial factors in the going-concern opinion. //Journal of Indonesian Economy and Business. Volume 25, Number 3, 2010, 369 – 378.
3. Karimov A.A., Muqumov Z.A., Khodjayeva M.H., Avlokulov A.Z. Xalqaro audit. Darslik. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2020 yil.– 424 b. 155-betdan.

²⁴ <https://www.acfe.com/about-the-acfe/newsroom-for-media/press-releases>





4. Tuychiyev A.J., Meliyev I.I., Avazov I.R. Moliyaviy hisobot auditi. O`quv
qo`llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. -160 b. 13-betdan.





**ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ГЛОБАЛЬНОГО ЯЗЫКА В
МИРЕ. АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК**

Рустамова Зарина Рустамовна

2105 группа

Студентка Самаркандского Государственного
института иностранных языков

Harakatlarni o'zlashtirish, musta'kamlash va takomillashtirishda ong juda katta a'amiyatga ega, unga xattoki avtomatlashtirilgan harakatlar ham tobe bo'ladi. Undan tashqarihar qanday maqsadga muvofiqharakat markaziy nerv sistemasiga afferent nervlardan qayta aloqa shaklida keladigan maolumentlar asosida to'xtovsiz korreksiya qilish jarayonida shakllanadi.

Shu boisdan trenerharakat malakasining takomillashishini boshqarish borishdan tashqari sportchining psixikasiga taosir qila bilishi kerak.

Amalda texnik mahoratni takomillashtirishning ikki asosiy xili uchraydi:
1) texnika asosanharakatning zamonaviy ratsional strukturasiga to'g'ri keladi va shuning bilan birga sportchi jismoniy tayyorgarligining shaxsiy xususiyatlariga mos





keladi; 2) sportchi harakatining texnikasi uning funksional imkoniyatiga to'liq mos kelmaydi va zamonaviy texnika modeliga nisbatan ozmiko'pmi kamchiliklari mavjud bo'ladi.

Shuning uchun harakat malakalarini takomillashtirish jarayoniga turlicha yondoshish zarur. Birinchiholda u to'g'ri harakatlarning son ji'atdan yanada rivojlanishiga bog'liq; tezlik va amplitudaning ortishi, kuch impulslarining ko'payishi, koordinatsiyaning bosh elementlarini aniqlash va ularni yaxlit harakat faoliyatining ritmi bilan o'zaro munosabati va shuning asosida maolunharakat faoliyatini shakllantirish. Ikkinchi holda harakat texnikasini takomillashtirish harakat malakasini ancha o'rgatish va harakat strukturasining kam samarali qismlarini samaralirog'i qismlarga almashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

Ish tajribasi va maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, harakat texnikasi kamchiliklarining asosiy sabablari trener va sportchilar texnik mahorat darajasini aniqlashning oboektiv ko'rsatkichlariga, uning takomillashib borishini kuzatish o'lchovlariga ega bo'lmasliklarida va shuningdek, ijro etish texnikasining mukammal modelining aniq emasligidadir.

Shuning uchun trener ham, sportchi ham harakatlarni muntazam to'g'rilab borish va ularning ijro etilishini kuzatib borish uchun texnik vositalar yordamida tez maolunot olish metodlariga ega bo'lishlari shart.

Texnik takomillashtirishning usullari

I. Qismlarga ajratish usuliyati harakat tuzilishini soddalashtirishdan iborat bo'lib, anglab olish jarayonini osonlashtiradi, butun koordinatsiyada har bir elementning tuzilishini bilib olishga yordamlashadi.

Bunda quyidagi vositalar tavsiya qilinadi: harakat shaklini o'zlashtirish uchun immitatsiya mashqlari; o'zlashtirilgan harakat shakllarini bajarishga qaratilgan maxsus mashqlarni zarur bo'lgan tezlikda, maolun zo'r berish va meoyorda bajarish.





II. Mashqni to'liq bajarish usuli musobaqa sharoitida nerv-muskul faoliyatining shartiga va rejimiga muvofiq yaxlit harakat malakasining shakllanishiga yordam beradi.

Texnik mahoratni takomillashtirishda ideomotor mashq qilishga a'amiyat berish lozim. O'rganishdaharakatlarni xayoliy ijro etish shuharakat to'g'risidagi tasavvur obrazini yaxshi-laydi. Ideomotorni xususiyati trenirovka qildirish bo'libharakatlarni qayta o'zgartirish, xatolarni tuzatish va malaka-larni takomillashtirishga yordam beradi.

Texnik tayyorlashning bosqichlari:

1. I bosqich – zamin tayyorlash va tasavvurhosil qildirish. Bunda o'rganiladiganharakat to'g'risida tushunchahosil qili-nadi, sport kurashi vaharakatning umumiy sxemasini o'zlash-tirish qoida va maqsadlari bilan tanishtirish vazifasi qo'yiladi. Bu bosqichdaharakat soddalashtiriladi, mashq uchun sharoithosil qildiriladi (balandlik pasaytiriladi, snaryad og'irligi va mashq bajarish shiddati kamaytiriladi, masofa, maydonchalarning o'lchami qisqartiriladi, qoida soddalashtiriladi vah.k.).

2. II bosqich – element texnikasini chuqur o'zlashtirish bir nechahaftadan bir necha oygacha davom eadi. Bu bosqichning vazifasi sport mashqi texnikasini to'g'ri ijro etish daraja-sigacha o'zlashtirishdan iborat.

3. III bosqich –harakat texnikasini takomillashtirish shug'ullanuvchilarning o'z intilishlari tugagunga qadar davom etadi. Bosqichning vazifasi – sport kurashining turli sharoit-larida maksimal zo'r bergandaham texnikani to'g'ri saqlab turish uchun sport mashqlarini takomillashtirishga erishishdir. Bunda yuqori muskul sezgisi (suv, muz, vaqt vahokazo sezgilari)ga ega bo'lish zarur bu bosqichdaharakat malakalari muntazam oshadi, funksional tayyorgarlik o'sib boradi, taktik fikrlash tako-millashadi.





Texnik mahoratning ta'rifi. Texnik mahorat uch xil ko'rsatkich: 1)hajm; 2)har tomonlamalik; 3) sportchi o'zlashtirgan texnikaning samarasi bilan ifodalanadi.

Xulosa: Texnikaning hajmi sportchi bajara oladiganharakatlar texnikasining umumiy soni orqali belgilanadi va amalda ijro etilishi bilan ba'olanadi. Ko'pincha texnikaninghajmi va uning jismoniy tayyorgarligi orasidagi bog'liqlik kuzatiladi (masalan, kurashchilar alo'ida muskul guru'larining yaxshi rivojlanganligihisobiga ayrim texnik usullarni yaxshi ijro etishadi yo aksincha, yaxshi ko'rgan priyomlarni yaxshi bajarganlari sababli baozi muskul gruppalari ularda kuchliroq bo'ladi).

Yuqorida keltirilgan usullarga quyidagilar tavsiya qilinadi: yaxlit harakatni osonlashtirilgan sharoitda bajarish, yaxlit harakat tuzilishini soddalashtirish, umumiy bajarish tezligini kamaytirish (yarim kuch bilan vah.k.) muskul zo'r berishini yengillashtirish, yengillashtirilgan snaryad qo'llash,harakat amplitudasini qis-qartirish, chamalash va cheklovchi narsalardan foydalanish, yaxlit mashq sharoitini asta-sekin murakkablashtirib (tezli-gini, qarshilik kuchini oshirib, muhitning o'zgaruvchan sharoitida va h.k.) bajarish, musobaqadagidek yuqori nerv qo'zg'alish sharoitida texnik maxoratni takomillashtirish (o'zini jalb qila bilish, maksimal zo'r berishni rivojlantirish va uni taqsimlay olish va h.k.).

Adabiyotlar ro'yxati

6. N.A.Tastanov "Kurash turlari turlari nazariyasi va uslubiyati" Darslik. T. 2017.

7. Sh.S.Tursunov– "Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati" O'quv qo'llanma. T., 2018.

8. Sh.S.Tursunov – "Yunon-rim kurashi bo'yicha mashg'ulot asoslari" O'quv qo'llanma. T., 2018.

9. D.Yu.Tashnazarov - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 1-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.





10. D.Yu.Tashnazarov. - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 2-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.





УДК: 796

**KURASH MASHG‘ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDAGI
MUAMMOLAR**

O‘ZDJTSU, Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası

dotsenti Djumanov Bakhitjan Muxtarovich,

o‘qituvchisi Anarbayev Malik Axmedovich ,

o‘qituvchisi Abdikulov Jandos Nurjon o‘gli

***Kalit so‘zlar:** jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, metodika, mashg‘ulot jarayoni.*

***Ключевые слова:** физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, методика, тренировочный процесс, психологическая подготовка.*

***Keywords:** physical training, technical training, tactical training, methodology, training process, psychological training.*

Ishning dolzabligi: Yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan barcha vositalar sport mashg‘uloti usuliyatlariga kiradi. Harakat faoliyatiga o‘rgatish usuliyatlari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasining umumiy asoslaridan sizga ma’lumdir. Bu yerda ularni sport mashg‘ulotlariga nisbatan aniqlashtirishga to‘g‘ri keladi. Usuliyatlarning asosiy maqsadi harakat malakalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Sport mashg‘ulotida belgilangan vazifalariga ko‘ra, qa’tiy reglamentlashtirilgan mashq usuliyatlarining turli xil variantlardan foydalaniladi. Trenirovka mashg‘ulotlaridagi harakat malakalarini





takomillashtirish jarayonida standart va almashtirib mashq qilish usuliyati keng qo'llaniladi.

Harakat sifatlarini va organizmning funksiyalarini takomillashtirishda maqsadga muvofiq tanlangan mashqlar kompleksi, interval mashq qilish usuliyatini (navbatdagi nagruzkalar orasida belgilangan vaqtda dam olish), uzluksiz mashq qilish (dam olinmasdan mashqlar kompleksi uzluksiz bajariladi) va yuqorida qayd qilingan turli xil usuliyatlar qo'llaniladi. Bir usuliyatning o'zi keng vazifalarni hal qilish va sportchini tayyorlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, masalan, yugurishda o'zgaruvchan mashq qilish usuliyati yordamida bir vaqtning o'zida chidamlilikni tarbiyalash, yugurish texnikasini takomillashtirish, masofa bo'ylab kuchni taqsimlashning taktik variantlarini mashq qilish mumkin va hokazo, ya'ni bir usul orqali sportchining jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini amalga oshirish mumkin.

Qa'tiy reglamentlashtirilgan usuliyatdan tashqari sport mashg'ulotida musobaqalashish va o'yin usuliyati, shuningdek, doiraviy mashq qilish metodi keng qo'llaniladi.

Musobaqalashish usuliyatining asosini faqat raqib bilan kuch sinash emas, balki o'z-o'zi bilan ham musobaqalashish mashqlari ham tashkil qiladi. Shuning bilan birga mashg'ulotga kiritilgan o'yin usullari yordamida yuqori ruhiy ko'tarinkilikka erishiladi, fikrlash qobiliyati, qo'yilgan maqsadga erishish, irodasi va qa'tiyyati rivojlanadi.

Doiraviy mashq qilish jismoniy mashqlarni qo'llashning tashkiliy-usuliyatining shakli sifatida jismoniy sifatlarning kompleks namoyon qilishni takomillashtirishga qaratilgan.

Mashg'ulot jarayonlari muayyan sport turida maksimum natijalarga erishishga qaratilgan. Yuqori sport kamolotiga erishish-ko'pqirrali va juda murakkab jarayondir. U sportchining o'zini har tomonlama funksional, jismoniy,





texnik va taktik tayyorlash orqaligina emas, uning natijasining o'sishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ta'sirida kam amalga oshiriladi. Bu omillarga birinchi o'rinda trenerning har tomonlama tayyorgarligini (uning nazariy bilimi, amaliy tajribasi, tashkilotchilik qobiliyati, shuningdek, ilmiy tadqiqot va metodik faoliyatga intilishining bevosita tashqi muhitni, moddiy-texnika, xo'jalik va meditsina ta'minoti va boshqalarni) kiritish lozim. Shunday qilib, sportchi rekord o'rnatishida unga yuzlab kishilar yordamlashadi, ular uni shaxs va sportchi sifatida shakllantirishadi.

Nagruzka (hajm va shiddati)ning to'liqsimon o'zgarishini L.P. Matveev «kechikuvchi transformatsiya» hodisasi deb tushuntiradi, ya'ni nagruzkaning son, sifat va vaqtni ifodalovchi tomonlariga qayta moslashish bir vaqtda sodir bo'lmaydi. Bunda tabiiy bioritm, tabiiy muhit, musobaqa kalendari va boshqalarni hisobga olish zarur. Chunonchi, o'rta va ayniqsa katta «to'liqin»larning boshlanishida hajm ko'rsatkichlari (hafta va oy ichida mashg'ulot ishlarining umumiy soni) yuqori ko'rsatkichlarga yetadi, keyin ham barqarorlashadi va kamayib boradi. Shuning asosida esa, turli shiddat ko'rsatkichlari (mashg'ulotning motor zichligi, harakatlarning tezlik, kuch tomonlari va boshqalar) katta ahamiyatga ega bo'ladi. Kichik «to'liqinlarda» ko'pinchahajm va shiddatning qarama-qarshi munosabatlari kuzatiladi: mikrosiklning birinchi yarmida ikkinchi yarmiga nisbatan mashg'ulotlar katta shiddatda, lekin kichikhajmda olib boriladi. Bu umumiy munosabatlar mashg'ulot jarayonida u yoki bu mashqlarning o'rnini va a'amiyatiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Nagruzkaning to'liqsimon o'zgarishi. Sport mashg'uloti uchun to'liqsimon dinamika xosdir.

Quyidagi masshtabdagi «to'liqin»lar mavjud:

- 1) kichik to'liqinlar mayda turkumdagi (2-7 kun) nagruzkalarning dinamikasini ifodalaydi;
- 2) o'rtacha to'liqinlar – bu bir necha (3-6) kichik to'liqinlarning mohiyatni ko'rsatadi va o'zicha o'rta turkumni ifodalaydi;





3) katta to'liqlar katta turkumlarni tashkil qiluvchi mashg'ulot bosqichlari va davrlaridagi o'rta turkumlarning to'liqsimon o'zgarishini ifodalaydi.

Xulosa: Sport trenirovkasi pedagogik hodisa bo'lib, mashq qilish usuliyatlari tizimi yordamida bevosita yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan va jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan jarayonidir. Shuni ta'kidlash muhimki, sport pedagogika nuqtai nazaridan birdan-bir maqsad bo'lmasdan, tarbiyalash, sog'lomlashtirish va hayotga tayyorlashning vositasidir.

Sport mashg'ulotining vazifalari: sog'likni mustahkamlash va ma'naviy tarbiya talablari, shaxsni har tomonlama garmonik rivojlantirish; sport texnikasi va taktikasini egallash; tanlangan sport turiga xos jismoniy, ruhiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish, sport gigienasi va o'z-o'zini nazorat qilish sohasida amaliy va nazariy bilimlarni egallashdan iborat. Sport mashg'uloti davomida faqat yuqori mahoratinigina egallamasdan, sog'ligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, serunum mehnat va himoyasi uchun zarur bo'lgan hayotiy zaruriy malakalarni egallash vazifalari hal qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

11. N.A.Tastanov "Kurash turlari turlari nazariyasi va uslubiyati" Darslik. T. 2017.
12. Sh.S.Tursunov– "Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati" O'quv qo'llanma. T., 2018.
13. Sh.S.Tursunov – "Yunon-rim kurashi bo'yicha mashg'ulot asoslari" O'quv qo'llanma. T., 2018.
14. D.Yu.Tashnazarov - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 1-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.
15. D.Yu.Tashnazarov. - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 2-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.







**KURASHCHILARINI MASHG‘ULOT JARAYONLARINI
TASHKILLASHTIRISH**

**O‘ZDJTSU, Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiya-
ti kafedrasi**

dotsenti Tursunov Shuhrat Sabitjanovich,

dotsenti Tashnazarov Djasur Yuldashevich,

Stajyor-o‘qituvchisi Nigmatov Ibrohim Mahmud o‘g‘li

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik,
metodika, mashg‘ulot jarayoni.

Ключевые слова: физическая подготовка, техническая подготовка,
тактическая подготовка, методика, тренировочный процесс.

Key words: physical training, technical training, tactical training, methodology,
training process.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi kurash turlarida yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan barcha vositalar sport mashg‘uloti usuliyatlariga kiradi. Harakat faoliyatiga o‘rgatish usuliyatlari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasining umumiy asoslaridan sizga ma’lumdir. Bu yerda ularni sport mashg‘ulotlariga nisbatan aniqlashtirishga to‘g‘ri keladi. Usuliyatlarning asosiy maqsadi harakat malakalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Sport mashg‘ulotida belgilangan vazifalariga ko‘ra, qa’tiy





reglamentlashtirilgan mashq usuliyatlarining turli xil variantlardan foydalaniladi. Trenirovka mashg'ulotlaridagi harakat malakalarini takomillashtirish jarayonida standart va almashtirib mashq qilish usuliyati keng qo'llaniladi.

Sport kurashida harakat sifatlarini va organizmning funksiyalarini takomillashtirishda maqsadga muvofiq tanlangan mashqlar kompleksi, interval mashq qilish usuliyatini (navbatdagi nagruzkalar orasida belgilangan vaqtda dam olish), uzluksiz mashq qilish (dam olinmasdan mashqlar kompleksi uzluksiz bajariladi) va yuqorida qayd qilingan turli xil usuliyatlar qo'llaniladi. Bir usuliyatning o'zi keng vazifalarni hal qilish va sportchini tayyorlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, masalan, yugurishda o'zgaruvchan mashq qilish usuliyati yordamida bir vaqtning o'zida chidamlilikni tarbiyalash, yugurish texnikasini takomillashtirish, masofa bo'ylab kuchni taqsimlashning taktik variantlarini mashq qilish mumkin va hokazo, ya'ni bir usul orqali sportchining jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot maqsadi shundan iboratki qa'tiy reglamentlashtirilgan usuliyatdan tashqari sport mashg'ulotida musobaqalashish shuningdek, doiraviy mashq qilish metodi keng qo'llaniladi.

Musobaqalashish usuliyatining asosini faqat raqib bilan kuch sinash emas, balki o'z-o'zi bilan ham musobaqalashish mashqlari ham tashkil qiladi. Shuning bilan birga mashg'ulotga kiritilgan o'yin usullari yordamida yuqori ruhiy ko'tarinkilikka erishiladi, fikrlash qobiliyati, qo'yilgan maqsadga erishish, irodasi va qa'tiyyati rivojlanadi.

Doiraviy mashq qilish jismoniy mashqlarni qo'llashning tashkiliy-usuliyatining shakli sifatida jismoniy sifatlarning kompleks namoyon qilishni takomillashtirishga qaratilgan.

Mashg'ulot jarayonlari muayyan sport turida maksimum natijalarga erishishga qaratilgan. Yuqori sport kamolotiga erishish-ko'pqirrali va juda murakkab





jarayondir. U sportchining o'zini har tomonlama funksional, jismoniy, texnik va taktik tayyorlash orqaligina emas, uning natijasining o'sishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ta'sirida kam amalga oshiriladi. Bu omillarga birinchi o'rinda trenerning har tomonlama tayyorgarligini (uning nazariy bilimi, amaliy tajribasi, tashkilotchilik qobiliyati, shuningdek, ilmiy tadqiqot va metodik faoliyatga intilishining bevosita tashqi muhitni, moddiy-texnika, xo'jalik va meditsina ta'minoti va boshqalarni) kiritish lozim. Shunday qilib, sportchi rekord o'rnatishida unga yuzlab kishilar yordamlashadi, ular uni shaxs va sportchi sifatida shakllantirishadi.

Nagruzka (hajm va shiddati)ning to'liqsimon o'zgarishini L.P. Matveev «kechikuvchi transformatsiya» hodisasi deb tushuntiradi, ya'ni nagruzkaning son, sifat va vaqtni ifodalovchi tomonlariga qayta moslashish bir vaqtda sodir bo'lmaydi. Bunda tabiiy bioritm, tabiiy muhit, musobaqa kalendari va boshqalarni hisobga olish zarur. Chunonchi, o'rta va ayniqsa katta «to'liqin»larning boshlanishida hajm ko'rsatkichlari (hafta va oy ichida mashg'ulot ishlarining umumiy soni) yuqori ko'rsatkichlarga yetadi, keyin ham barqarorlashadi va kamayib boradi. Shuning asosida esa, turli shiddat ko'rsatkichlari (mashg'ulotning motor zichligi, harakatlarning tezlik, kuch tomonlari va boshqalar) katta ahamiyatga ega bo'ladi. Kichik «to'liqinlarda» ko'pinchahajm va shiddatning qarama-qarshi munosabatlari kuzatiladi: mikrosiklning birinchi yarmida ikkinchi yarmiga nisbatan mashg'ulotlar katta shiddatda, lekin kichikhajmda olib boriladi. Bu umumiy munosabatlar mashg'ulot jarayonida u yoki bu mashqlarning o'zni va a'amiyatiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Nagruzkaning to'liqsimon o'zgarishi. Sport mashg'uloti uchun to'liqsimon dinamika xosdir.

Quyidagi masshtabdagi «to'liqin»lar mavjud:

1) kichik to'liqinlar mayda turkumdagi (2-7 kun) nagruzkalarning dinamikasini ifodalaydi;

2) o'rtacha to'liqinlar – bu bir necha (3-6) kichik to'liqinlarning mohiyatni ko'rsatadi va o'zicha o'rta turkumni ifodalaydi;





3) katta to'liqlar katta turkumlarni tashkil qiluvchi mashg'ulot bosqichlari va davrlaridagi o'rta turkumlarning to'liqsimon o'zgarishini ifodalaydi.

Xulosa: Sport trenirovkasi pedagogik hodisa bo'lib, mashq qilish usuliyatlari tizimi yordamida bevosita yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan va jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan jarayonidir. Shuni ta'kidlash muhimki, sport pedagogika nuqtai nazaridan birdan-bir maqsad bo'lmasdan, tarbiyalash, sog'lomlashtirish va hayotga tayyorlashning vositasidir.

Sport mashg'ulotining vazifalari: sog'likni mustahkamlash va ma'naviy tarbiya talablari, shaxsni har tomonlama garmonik rivojlantirish; sport texnikasi va taktikasini egallash; tanlangan sport turiga xos jismoniy, ruhiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish, sport gigienasi va o'z-o'zini nazorat qilish sohasida amaliy va nazariy bilimlarni egallashdan iborat. Sport mashg'uloti davomida faqat yuqori mahoratinigina egallamasdan, sog'ligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, serunum mehnat va himoyasi uchun zarur bo'lgan hayotiy zaruriy malakalarni egallash vazifalari hal qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

16. N.A.Tastanov "Kurash turlari turlari nazariyasi va uslubiyati" Darslik. T. 2017.

17. Sh.S.Tursunov– "Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati" O'quv qo'llanma. T., 2018.

18. Sh.S.Tursunov – "Yunon-rim kurashi bo'yicha mashg'ulot asoslari" O'quv qo'llanma. T., 2018.

19. D.Yu.Tashnazarov - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 1-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.

20. D.Yu.Tashnazarov. - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 2-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.







KURASHCHILARINING TAKTIK TAYYORGARLIGI
TAKOMILLASHTIRISH

O'ZDJTSU, Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası

o'qituvchisi Abdikulov Jandos Nurjuanovich,

o'qituvchisi Melimuratov azizbek Xolmurod o'g'li ,

o'qituvchisi Nigmatov Ibrohim Mahmud o'g'li

Kalit so'zlar: maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik - taktik tayyorgarlik, metodika, mashg'ulot jarayoni, psixologik tayyorgarlik.

Ключевые слова: специальная физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, методика, тренировочный процесс, психологическая подготовка.

Key words: special physical training, technical and tactical training, methodology, training process, psychological training.

Ilmiy tadqiqot ishining dolzabligi shundaki yunon-rim kurash turida taktik mahorat barcha sport turlari uchun zarurdir, ayniqsa, sharoitni birdaniga anglab olmoq, raqibini juda yaxshihis qilish va boy tajribadan tez foydalanishni talab etadigan sport o'yinlarida a'amiyatlidir. Maolun reja va kurashninghar bir daqiqasini anglab olish asosida turli usullar, priyomlar vaharakatlarni qo'llashda sportchilarning ruhiy, jsmoniy va texnik qobiliyatlaridan samaraliroq foyda-lanishda taktika zarur bo'ladi. Umuman taktika – maxorat, belgilangan rejani amalga oshirishni ta'minlaydigan yaxshi bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanadi. Taktika – bu sport kurashini olib borish sanoatidir. Bunda yutuqqa erishish uchun sportchi kuch va barcha imkoniyat-laridan maqsadga muvofiqroq foydalanishi zarur. Oldindan belgilangan reja bo'yicha va tezlik bilanhal qilinishi darkor vazifalarga





ko'ra tashqi mu'itning doimiy va o'zgaruvchan sharoitida foydalanadigan texnika taktikaning asosiy vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi sport taktikasi uch shaklda namoyon bo'ladi:

1) shaxsiy kurash: a) raqibning bevosita qarshiligi bilan (yo'lakchasi belgilanmagan joylarda yugurish, velosiped poygasi, sportcha yurish, chang'i va h.k.) va raqiblarning nisbiy ta'siri bilan (yo'laklarda) yugurish, gimnastika, suzish, qayiq haydash, figurali uchish va h.k.);

2) ikki kishining kurashi: a) raqibning bevosita qarshiligi bilan (boks, qilichbozlik, dzyu-do, kurash); b) raqiblarning bilvosita ta'sirida (tennis, stol tennisi, badminton, shaxmat vah.k.);

3) jamoali musobaqalari: a) raqibning bevosita qarshiligi bilan (basketbol, futbol, qo'l to'pi, hokkey va h.k.) va b) raqibning bilvosita ta'siri bilan (voleybol, estafetali yugurish, badiiy gimnastika bo'yicha komanda musobaqalari va h.k.)

Sport kurashini tashkil qilish va olib borish harakatlarning taktik muammosi sport taktik muammosi sport musobaqalarini uyushtirish va olib borishda namoyon bo'ladi. Sport musobaqasini taktikasi deganda eng yaxshi natijaga erishish uchun musobaqa oldindan va bevosita musobaqa vaqtida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tushunamiz.

Taktik faoliyat taktik mashg'ulotlar, texnik malaka, jismoniy qobiliyatning rivojlanishi darajasi, irodaviy fazilatlar, reaksiya tezligi va boshqalarga asoslanadi. Taktik harakatning uch fazasi mavjud:

- a) musobaqa situatsiyasini anglash va ta'lil qilish;
- b) maxsus taktik vazifani xayolanhal qilish;
- v) taktik vazifani amaliyhal qilish.





Idrok qilish sifati ko'rishhajmi, ko'rish doirasi, ko'rish orqaliharakatni ba'olash, texnik malakalarning rivojlanish darajasi, fikrlash jarayonining sifati, bilim va tajribalarga bog'liq bo'ladi.

Taktik vazifa avvalo xayolan, keyin esa amaliyhal qilinadi. Sportchi nima qilishi kerakligini juda tez belgilashi, o'z bilimini malaka va qobiliyatini ba'olay olishi kerak. Ayrim sportchilar musobaqa situatsiyasini idrok va ta'lil qilishda bilim va tajribaning kamligi sababli mantiqiy fikrlashga borliq bo'lgan taktik vazifalarni hal qilishda qiyinchilikka duch keladilar.

Funksional tayyorgarlikning mohiyati murakkab mu'itda va katta jismoniy nagruzkalar orqali organizmning funksional sistemalarini maqsadga muvofiq, rivojlantirishdan, ya'ni katta muskul funksional va psixik zo'r berishlarga bardosh berishga erishishdan iborat.

Funksional tayyorgarlikka maxsus tayyorgarlik mashqlari kiritilib ular quyidagilarga ta'sir ko'rsatadi:

1. Nerv tizimining funksiyasini takomillashtirish. Markaziy nerv sistemasini shunday tayyorlash zaruriyat, u katta jismoniy va psixik zo'r berishlarga bardosh berish uchun nerv jarayonining maolom kuchiga ega bo'lishi kerak.

2. Barcha funksiyalarni, birinchi o'rinda bosh miya tomirlarini vegetativ ta'minlashga, yurak qon tomir va nafas olish sistemalarini takomillashtirishga, shuningdek, chiqarish organlariga ta'sir ko'rsatadi.

3. Anlizatorlar funksionalarining rivojlantirish va takomillashtirishni programmalashtirish.

4. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun suyak muskul sistemasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Funksional tayyorgarlik shakllari. 1. Funksional tayyorgarlikning ayrim qismlarini barcha mashg'ulotlarga kiritish. 2. Yaxlit mashg'ulotlarni funksional





tayyorlash maqsadida o'tkazish. 3. Mashg'ulot sikllariga sog'lomlashtirish tadbirlari (ertalabki gimnastika, sayrlar, turizm)ni kiritish.

Funksional tayyorgarlikni amalga oshirish uchun quyidagilarda foydalanish kerak:

- a) tanlash vositalari (cho'milish, bo'shash, holatsizlanish);
- b) miyada qon aylanishini boshqaruvchi mashqlar;
- v) yuqori muskul sezgisi, vestibulyar vaharakat analiza-torlari, nafas olish va yurak qon-tomir sistemalari vahokazolarni rivojlantiruvchi mashqlari.

Sportchini maonaviy va psixologik tayyorlash

Sportchini maonaviy tayyorlash o'zining pedagogik mohiyati bo'yicha sport faoliyati sharoitida qo'llanilishiga qarab amalga oshiriladigan axloqiy va irodaviy tarbiyalash jarayoni hisoblanadi.

Sport – kuchli irodani talab qiladigan mashaqqatli va murakkab faoliyatdir.

Kuchli iroda, maqsadd sari intilish. Tashabbuskorlik va sabotlilik fazilatlarini tarbiyalash sportchini tayyorlashning ajralmas qismini tashkil qiladi.

Sportchini tarbiyalash jarayonida quyidagi fazilatlarini rivojlantirish zarur:

- xalq ishiga sadoqat, ijtimoiy va davlat ishini o'z shaxsiy ishidan yuqori qo'yishga intilish, me'nat va himoya qilish maqsadida o'z sog'ligi to'g'risida muntazam g'amxo'rlik qilish;
- ijtimoiy mulkka tejamli bo'lish;
- jamoaning amaliy faoliyatida aktiv qatnashish, sport mahorat ini oshirish, turmush sharoitidagi hatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni his qilish, shaxsparastlik, jamoa ishiga beparvo qarashga yo'l qo'ymaslik;

Xulosa: Mamlakatning barcha xalqlari bilan do'st bo'lish, boshqa mamlakat xalqlari bilan munosabati musta'kamlash, xalqaro uchrashuvlar jarayonida irqiy





ajratishlarga va milliy xurofot-larga beg'araz bo'lish, tinchlik demokratiya va taraqqiyot dushmanlariga qarshi kurashish.

Sportchilarining yuqori axloqiy fazilatlari me'natda, turli faoliyatda, xatti-'arakatlarida, kishilar muomalasida shakllanadi va sport etikasini belgilashda manba bo'lib xizmat qiladi. Sport etikasi – bu sportchining o'ziga xos faoliyatda (mashg'ulot, musobaqa, ko'rgazmali chiqishlarda vah.k. da) sportchi uchun majburiy bo'lgan xatti-'arakatlar normasi va qoidalarining yig'indisidir. Sport etikasining asosi – o'zbek sportchisiga qo'yiladigan axloqiy talablardir.

Ular musobaqalarning talablarida, nizom va programmalarida qonunlashtirilgan: musobaqalarda sportchilar uchun bir xil sharoit yaratish, g'oliblarni aniqlashda oboektiv bo'lish, raqib va sudpyaga nisbatanhurmatda bo'lish, musobaqalardahavfsizlikni ta'minlash, marosimlarga rioya qilish, sport musobaqalarini targ'ibot qa tashviqot qilishdir.

Adabiyotlar ro'yxati

21. N.A.Tastanov “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik. T. 2015.
22. N.A.Tastanov “Kurash turlari turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik. T. 2017.
23. Sh.S.Tursunov– “Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati” O'quv qo'llanma. T., 2018.
24. Sh.S.Tursunov – “Yunon-rim kurashi bo'yicha mashg'ulot asoslari” O'quv qo'llanma. T., 2018.
25. D.Yu.Tashnazarov - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 1-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.
26. D.Yu.Tashnazarov. - Sport pedagogik maxoratini oshirish (yunon-rim kurashi bo'yicha 2-jild). O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019.





**Mavzu: “ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA” FANINI
O‘QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHLARINI
SHAKLLANTIRISH MANBALARI**

Jo‘rayev Mirjalol Qahramonovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Elektr mexanikasi va texnologiyalari” kafedrası assistenti.

Nizomov Nozimjon Zafar o'g'li

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Elektr mexanikasi va texnologiyalari” kafedrası talabalari

Annotatsiya Maqolada ““Elektrotexnika va elektronika” fanini o‘qitishda talabalar mustaqil fikrlashlarini shakllantirish manbalari” orqali o‘qitishda normativ-huquqiy hujjatlar va ilg‘or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili haqida gap boradi. Ta‘lim jarayonini rivojlantirish uchun xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalangan holda dars mashg‘lotlarini tashkil qilish, elektromexanik qurilmalarga nisbattan ishonli ishlashini o‘rgatish maqsadimizdir

Kalit so‘zlar: *O‘zgarmas tok, O‘zgarmas generator, O‘zgarmas tok motorlari, kollektor, elektromagnit induksiya qonuni.*

joyayev159@mail.ru

Тема: Источники формирования самостоятельного мышления студентов при преподавании «Электротехники и электроники».

Аннотация В статье говорится о сравнительном анализе нормативных правовых документов и передового зарубежного опыта обучения через «Ресурсы формирования самостоятельного мышления студентов при обучении науке «Электротехника и электроника». Урок с использованием опыта зарубежных стран по развитию образовательный процесс. Наша цель – организовать обучение и научить надежной работе электромеханических устройств





Ключевые слова: постоянный ток, генератор постоянного тока, двигатели постоянного тока, коллектор, закон электромагнитной индукции.

jorayev159@mail.ru

Topic: Sources of formation of students' independent thinking in the teaching of "Electrical engineering and electronics".

Annotation The article talks about the comparative analysis of regulatory legal documents and advanced foreign experiences in teaching through "Resources of formation of independent thinking of students in the teaching of the science of "Electrical engineering and electronics". Lesson using the experiences of foreign countries to develop the educational process. Our goal is to organize training sessions and teach reliable operation of electromechanical devices

Key words: Constant current, Constant generator, Constant current motors, collector, law of electromagnetic induction.

jorayev159@mail.ru

Respublikamizda rivojlangan mamlakatlar qatori jahon ta'lim tizimida yuqori samara berayotgan ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish va amalda qo'llash jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Buning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta umumkasbiy ta'lim vazirligining tashabbusi bilan bir guruh pedagog olimlari tomonidan ijodiy hamkorlikda Pedagogik texnologiya tamoyillari va qoidalarini ishlab chiqilgani va uni amalda foydalanish uchun tavsiya qilinganini ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda axborot texnologiyalar davri ta'lim jarayoniga kirib keldi. Ta'lim mazmuni, metodi va tashkil etilishini takomillashtirish masalasi dolzarb masaladir. Shu bois ta'lim jarayoni pedagogikada yangi texnologiyalar yaratilishini taqazo etadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy, ba'zi xollarda yangi pedagogik texnologiya iborasini ishlatib keldik. Aslida bizning tasavvurimizda har ikkala termin sinonim harakteriga ega deb hisoblangan xolda ish ko'rdik. Yangi pedagogik texnologiya mazmuni o'quv maqsadlarini nazarda tutgan texnologik ishlanmalar, o'quv maqsadlarni nazoratda tutuvchi o'ziga xos tasniflagichlar, internet tizimi va





elektron darsliklar, test topshiriqlari, to'liq o'zlashtirish texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi.

Buning uchun biz ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanamiz, ya'ni ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida talabalar mustaqil o'quv faoliyatlarini rivojlantirishga harakat qilamiz. Ilg'or-o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lidan o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan zamona talabi darajasidagi tadbirlar majmuasi. Ilg'or pedagogik texnologiya ta'lim tizimining rasional yo'llarini ishlab chiqaruvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni talabalarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iboratdir. Talabalarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi talabalarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishi lozim. Bunda talaba asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib, o'qish, mutoala qilish, chizma chizish, proyeksiyalarni, formulalarni tushunish, asboblarni ishlata bilish, asboblardan to'g'ri foydalana olish, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib oldilariga qo'yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifalari hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar talabalarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda, yoshlarimizning o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi. Demak, ta'lim muassasalarimizni faoliyati asosan talabalarimizni demokratik jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, o'z dunyoqarashiga ega ma'naviy-komil shaxs bo'lib shakllanishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi-pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna





bilishi;

- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazardan anglashi;

- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tatbiq etishi;

- internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;

- pedagogik mehnatning samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'z-o'ziga baho bera olishi;

- oilaviy ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirishi;

- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar;

- milliy g'oya va milliy mafkura hamda iqtisodiy islohotlar mohiyatini tushunib yetishi;

- yangi pedagogik texnologiyalarning asl mohiyatini tushunib olishga;

- dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi;

- talabalarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi;

- darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi;

- texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi;

- bolalarning barkamol inson bo'lib yetishishida o'zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta'lim -tarbiya berish kabilardir.

O'qituvchilarga qo'yiladigan yuqorida keltirilgan zamon talablari majmuini amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlash tafakko'rini o'stirishi, pedagogik texnologiyalarni mustaqil o'rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Talabalar mustaqil ishi-o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas





qismi bo‘lib, unga ajratilgan vaqt meyorida berilgan topshiriqlarni talaba tomonidan o‘qituvchining ishtirokisiz bajarilishidir. Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi-o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy va ilmiy-pedagogik ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. “Elektrotexnika va elektronika” fanidan talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda mashg‘ulot turiga tegishli mustaqil talim soatiga mos keladigan topshiriqlar tuziladi. Ma’ruza mashg‘ulotining har bir bo‘limiga tegishli mustaqil ish topshiriqlarini tuzishda soddadan murakkabga qarab boriladi va topshiriqlar shunday tuziladiki, uning 50-60% foizi standart talablarini bajarsin, bunda talaba o‘z imkoniyatlari darajasida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi mumkin. Topshiriqlar to‘plamiga asos qilib ma’ruzada o‘tilgan tayanch so‘z va iboralar, ularning lug‘ati, sharhi, mazmuni va shunga o‘xshashlarni olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Shaymatov B.X. Xafizov I.I. Xolmurodov M.B.,Sattorov T.A., Darslik-
“Elektr mashinalari” Buxoro.: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti,
2021.635.b

1. Jo‘rayev M. Q. ”Oliy ta’lim muassasalarining elektr energetika yo‘nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o‘qitish tahlili”. Toshkent 2021 1–son 18 bet

3. Jo‘rayev M. Q. “Elektr yuritmalari tezligini rostlash usullari” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet

4. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jorayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K.
International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p

5. Jo‘rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). “Elektr mashinalari” fani Taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. Academic Research in Educational





Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet

6. Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Chulpan. 2013. – 200 bet.

7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich SOFTWARE ANALYSIS OF ELECTRIC MACHINE SCIENCE ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143 | P a g e

8. Jo'rayev M.Q. Dunyoda yadro energetikasi taraqqiyoti rivojlanishini amaliy ahamiyatining inavasion texnologiyalardagi bosqichlari. Maqola №12(79) soni (dekabr, 2020).

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni www.lex.uz

10. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-noyabr "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risi"dagi PF-6108 farmonida www.lex.uz

11. Gafforov K.K., Hafizov Kh.I., Research of processes of implantation of ions in monocrystal gaas (001) on purpose increase in efficiency of solar elements, ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING 2019-I ISSN 2181-9750, P.51-58

12. Khafizov I.I., Khaitov B.B., The investigation of ions implantation processes into a single-crystal GaAs(001) in order to increase the efficiency of the solar cells, MODERN SCIENCE International scientific journal №02, 2017, Founder and publisher: "Strategic Studies Institute" LLC., Moscow, 2017, P.43-46.

13. Khafizov .Islom, Gafforov Komil, Muxammedov Shuxrat, Jurakulov Abdullo , Energy saving when using a variable frequency drive in pump installions, Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 12, 2020. p 99-102

14. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Bakhodir Oblokulov, Aziz Azimov, Elimination of energy losses in pumping installations by means variable frequency drive., International Engineering Journal For Research & Development. 2020. Vol.5





Issue 3

15. Хафизов И.И., Шарипов Ш.Н., Худойназаров Ф.Ж., , Саноат корхоналарида зарарли газ ва чанглардан тозаловчи энергия самарадор электр фильтрларнинг қўлланилиши, Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti 2020/2 (78) 28-376





ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТ ФАОЛИЯТИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ МЕХАНИЗМИ

САБУРОВА МАФТУНА ИБОДУЛЛА ҚИЗИ

Аннотатсия: Мазкур мақола юртимизда электрон тижорат тизимининг ривожланиши ва бугунги кунда жамиятда тутган роли ҳақида маълумотлар жамлаган. Шунингдек, электрон тижорат тизимини солиққа тортиш механизмининг ишлаш функцияси ва унга киритилган янгиликлар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: замонавий субъектлари, Электрон бизнес, инвестиция, замонавий технологиялар, электрон чеклар, тўлов транзакциялар.

Ўзбекистон ривожланишининг стратегик мақсади ривожланишнинг инновацион йўли ҳисобланади. Мазкур мақсадга эришиш учун миллий иқтисодиётнинг барча тармоқларида, шу қаторда савдо соҳасида ахборот технологиялари ва Интернет глобал тармоғидан самарали фойдаланиш зарур. Электрон тижорат илмий тадқиқотлар ўтказилиши ва кейинчалик уни ривожлантириш бўйича самарали чораларни ишлаб чиқиш керак бўлган фаолият янги соҳаси ҳисобланади. Ушбу соҳани ривожлантириш зарурлиги электрон тижорат иқтисодиётда ривожлантириш долзарблигини кучайтирувчи бир қатор афзаллакларга эга эканлиги билан асосланади. Электрон тижорат замонавий субъектлари қуйидаги афзалликларга эга: таклиф қилинадиган хизматлар ва товарлар кенг кўлами, куну-тун ишлаш режими, катта потенциал аудитория, вақтни тежаш ҳамда харидлар ва савдоларни ташкил қилиш қулайлиги, қиммат савдо майдонларда эҳтиёж йўқлиги, ишчилар чегараланган штати, мурожаатлар билан боғлиқ сарфҳаражатларни тежаш, бу эса рақобатбардош нархлар қўллаб-қувватлаш ва товарлар ва хизматлар сифатини яхшилашга имкон беради.

Электрон бизнес электрон иқтисодиётнинг бир қисми ҳисобланади ҳамда бизнесни ташкил қилишда инновацион ёндашув мавжудлиги, масштаблик ва жадаллик, реал вақт режимида ва глобал маконида





операцияларни амалга ошириш билан тавсифланади. Электрон бизнеснинг тақрибий қисми электрон тижорат ҳисобланиб, унинг таркибига электрон савдо киради. Электрон тижорат фаолиятнинг янги соҳаси ҳисобланади ҳамда ўзининг икки ўн йиллик атрофида жадал тарихий ривожланиш даврига эга. Бу ҳол сўнгги 20 йил ичида Интернет глобал тармоғининг фойдаланувчилар сони кескин кўпайгани, ижтимоий тармоқларни ва интерактив онлайн-платформалар аҳамияти ошгани, таклиф қилинаётган электрон тўлов-ҳисоблаш тизимлар, масофадан тўлаш тизимларининг турлари ва сони ўсгани билан изоҳланади. Электрон тижорат кескин рақобат шароитида бизнесни юритишда янги ғоялар ва ёндашувларни излаш натижаси ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 14 май куни «Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорини имзолади. Ушбу ҳужжатга мувофиқ 2018-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасида электрон тижоратни ривожлантириш дастури тасдиқланади. Электрон тижорат имкониятлари ва афзалликларини, жумладан, товарлар (хизматлар) учун, айниқса, жойларда нақд пулсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш даражаси пастлигича қолмоқда, бу эса хуфёна иқтисодиёт ҳажмининг ошишига ва давлат бюджетига солиқ тушумларининг камайишига олиб келмоқда. Амалдаги солиққа тортиш тизими электрон тижорат соҳасидаги тадбиркорлик субъектлари, жумладан, ахборот воситачилари фаолиятини кенгайтиришни рағбатлантирмайди, бу эса Интернет тармоғи орқали маҳсулотларни хуфёна айирбошлаш ҳажми ошишига олиб келмоқда, шунингдек, ушбу соҳага инвестициялар ва замонавий технологияларни жалб қилишни чекламоқда.

Мамлакатда электрон тижоратни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, товарлар (хизматлар)ни Интернет тармоғи орқали реализация қилиш учун замонавий механизм ва тартиб-таомилларни жорий





қилиш, маҳаллий тадбиркорлик субъектлари маҳсулотларини экспорт қилиш географиясини кенгайтириш ва ҳажмини ошириш мақсадида қонун ҳужжатларига мувофиқ электрон тижорат иштирокчилари томонидан хизматлар кўрсатиш жараёнида ахборот тизимлари томонидан шакллантириладиган, битимлардаги томонларни идентификациялаш имконини берувчи электрон чеклар, квитанциялар, хабарлар ва бошқа усуллар товарлар (хизматлар) учун тўловларни тасдиқловчи квитанциялар, талонлар, чипталар ва бошқа ҳужжатларга тенглаштирилиши белгиланган. Шунингдек, тадбиркорлик субъектлари томонидан электрон тижорат битимларини амалга оширишда тўловлар виртуал терминаллар (Э-ПОС) орқали харидорга нақд пулни қабул қилганлиги тўғрисида электрон чек ёки бошқа тасдиқловчи ҳужжатни мажбурий юборган ҳамда инкассация қоидаларига қатъий риоя қилган ҳолда пул маблағларини хизмат кўрсатувчи банкга топшириш шарти билан нақд пул шаклида қабул қилиниши мумкин.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ҳозирда виртуал иқтисодий муносабатларни ташкил қилиш соҳасида бой тажриба тўпланган, бу эса бозорларнинг барча турларини электрон шаклга ўтказишга имкон беради. Мустақил экспертлар таъкидлашича, ҳозирги вақтда дунёда электрон бозорларнинг улкан арсенали фаолият юритади, уларни анъанавий бозор турлари каби қуйидаги мезонлар ва турлари бўйича таснифлаш мумкин. Таъкидлаш жоизки, бозор алмашинуви ташкил қилиш шакли бўйича чакана ва улгуржи электрон бозорларни ажратиш лозим. Улгуржи бозорлар банк институтлари билан (банклараро ҳисоб-китоб тизимлари, фонд бозори ва биржаларнинг ҳисоб-китоб тизимларидан фойдаланган ҳолда) ишлайди ҳамда электрон тижоратнинг В2В ва Г2Б моделларига тегишлидир. Замонавий иқтисодиёт назарияси ва амалиёти реал ва молия секторларнинг ҳолати биринчи навбатда савдони ташкил қилиш даражаси ва шаклига боғлиқ. Савдо тижоратнинг муҳим бўғини ҳисобланиб, иқтисодиёт ишлаб чиқариш ва





ортиқча ишлаб чиқариш генератори бўлиб хизмат қилади. Шу муносабат билан, фан ва технологиялар янги ютуқларидан фойдаланиш асосида тижоратни ташкил қилиш жараёнини такомиллаштириш масаласи ҳам миллий иқтисодиётимиз, ҳам жаҳон иқтисодиёти учун долзарблигича қолмоқда. Ҳозирги вақтда замонавий иқтисодиёт фанида янги тенденциялар, тармоқлар, иқтисодий атамалар шаклланиб бормоқда, жумладан электрон савдо майдони, савдо, тижорат, бизнес, ҳукумат, электрон пуллар ва ҳ.к Бунинг ҳаммаси фан ва амалиёт иқтисодиётда ҳўжалик юритувчи субъектлар орасида иқтисодий муносабатларни электрон форматга ўтказиш соҳасида янги имкониятлар ва ёндашувлар излашидан далолат беради.

2018 йил якунига қадар мобиль телефонлар (планшетлар) қўлланилишини инобатга олган ҳолда банк карталари ва нақд пул тўловларини қабул қилувчи ягона қурилмаларни (Э-ПОС терминал ва онлайн НКМ бир қурилмада) жорий этиш бўйича зарур чоралар қўрилади. 2018 йил 1 июлга қадар муддатда электрон тижорат иштирокчиларининг миллий реестрини (кейинги ўринларда Миллий реестр деб юритилади) яратиш тўғрисидаги таклифлар қабул қилинади. Миллий реестрни юритиш электрон шаклда онлайн режимда амалга оширилади. Миллий реестрга ихтиёрий ва бепул асосда товар (хизмат)ларни электрон тижорат орқали сотишдан олган даромадлари умумий сотилган товарлар (хизматлар) ҳажмининг камида 80 фоизини ташкил этувчи, шу жумладан, электрон тижоратда электрон савдо майдончалари, товарларни етказиб бериш, электрон ҳужжатлар ва хабарларни сақлаш хизматларини кўрсатувчи юридик шахслар ва хусусий тадбиркорлар киритилади. Миллий реестрга киритилган юридик шахслар ва хусусий тадбиркорлар 2 фоиз ставка бўйича ягона солиқ тўловини тўловчилар ҳисобланади.





Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, ахборот хавфсизлиги электрон тижоратнинг бош вазифаси ҳисобланади. Интернет-фойдаланувчиларнинг ижтимоий сўровлари электрон тижоратни ривожлантиришда тўсқинлик қилувчи муҳим омил деб инсонларнинг психологик жиҳати тан олинган, унга кўра кўпчилик фойдаланувчилар Интернет-муҳитида фирибгарлар қурбони бўлиш хавфини кўрсатишган. Интернет потенциал товарлар ва хизматлар харидорлари ва сотувчилар учун ҳафвли муҳит бўлиб қолмоқда. Тадқиқотлар амалиёти шуни кўрсатадики, ҳозирги вақтда киберўғрилар учун жозибадор объект сифатида юридик шахслар хизмат қилади, чунки ҳисобларда қолдиқлар ҳажми ҳамда тўлов транзакциялар мунтазамлиги билан уларни ўзига тортади, жисмоний шахсларнинг ҳисоблари эса унчалик жозибадор ҳисобланмайди. Бундан ташқари, етакчи хорижий мутахассислар фикрича электрон тижорат жараёни ривожланиши асосан ахборот хавфсизлиги соҳасида тараққиёт билан белгиланади

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Муллабоев Мурод Фарходжонович. Ўзбекистон электрон тижорат тизимини ривожланишида маркетингнинг роли. Тошкент -2018
2. Аскеров Т.М. Защита информации и информационная безопасность. Учеб. пособие. Под ред. К.И. Курбакова. М.: Рос.экон.акад., 2001.
3. Жамолов Х., Абдуллаев Х. Корхоналарнинг тўловга қодирлиги ва рентабеллиги. Бозор пул ва кредит. 1-сон, 2001 й.
4. [хтtps://kun.uz/33641275](https://kun.uz/33641275)





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA‘LIM TIZIMI VA UNING
TARIXIY, HUQUQIY ASOSLARI**

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna.

**Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi,
3-darajali yurist. Email: shokhidaxonjiyanova@gmail.com**

Telefon: 91 327 45 05

***Annotatsiya:** mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimi va uning tarixiy shakllanish jarayoni va mazkur tizimning huquqiy asoslari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan masalalar haqida bahs yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim tizimi, ta‘lim shakllari, ta‘lim tamoyillari, ta‘lim turlari, konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*

O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimi qonun va hukumat hujjatlari bilan belgilanadigan o‘ziga xos huquqiy bazaga ega. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining asosini Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat va Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qaror va farmoyishlari tashkil etadi.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ta‘lim tizimi faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilab beradi va har bir fuqaroning bilim olish huquqini kafolatlaydi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun – O‘zbekiston ta‘lim tizimi ishtirokchilarining maqsad, vazifalari, tamoyillari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Mazkur qonun mustaqillikning dastlabki yillarida, aniqrog‘i 1992-yilda qabul qilingan. Keyinroq, 1997-yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bilan birgalikda yangi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun amalga kiritildi. Zamon o‘zgarishi, davr talabidan kelib chiqib





mazkur qonun va dastur o'z kuchini yo'qotdi va 23.09.2020 yilda O'RQ-637-son bilan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yangidan qabul qilindi. Hozirda ushbu qonun amalda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, ta'limning har bir bosqichining maqsad va vazifalari, ta'lim jarayoni sub'ektlarining huquq va majburiyatlari, ta'lim muassasalari va davlat organlarining o'zaro hamkorligi qoidalari, ta'limning har bir bosqichining maqsad va vazifalari belgilab berilgan. shuningdek, ta'lim sifatini moliyalashtirish va monitoring qilish tamoyillari belgilab qo'yilgan.

"Ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda – mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan aniq chora-tadbirlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish qoidalari – O'zbekistondagi turli ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ta'lim muassasalarining nizomlari - ta'lim muassasalarining faoliyati va ularning ta'lim tizimi ishtirokchilari bilan munosabatlari qoidalarini belgilaydi.

"Davlat tili to'g'risida"gi qonun – ta'lim tizimida tillardan foydalanish tartibini belgilab beradi, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining davlat tilini o'rganish bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, ta'lim tizimida ta'lim jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqa qonun hujjatlari ham amalda.

O'zbekiston ta'lim tizimining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- barcha fuqarolar uchun bepul ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash;
- xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim sifatini ta'minlash;
- ta'lim tizimida fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish;
- ta'lim tizimini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistonda ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;





- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim ixtiyoriydir, biroq davlat uning kam ta'munlangan oila farzandlari uchun bepul va 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Professional ta'lim uch xil shaklda amalga oshiriladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida olib boriladi.





O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oliy ma'lumotli bo'lishni xohlagan va kirish imtihonlarini topshirgan barcha fuqarolar oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim ustuvorligining tan olinishi, ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi, ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar hisoblanadi. Shuningdek, mamalakatda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining asosiy tamoyillariga quyidagilar





kiradi:

- barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati;
- yagona davlat ta'lim standarti;
- ta'lim sifatini ta'minlash;
- o'qitish shakllari va usullarini erkin tanlash;
- ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirish;
- bilimlarni erkin tarqatish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi doirasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari xorijiy hamkorlar bilan ilmiy tadqiqotlar, tajriba va bilim almashish sohasida ham hamkorlik qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini asosiy boshqaruv organi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidir. Mazkur vazirliklar ta'lim sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish uchun javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi zamon talablari va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muttasil takomillashtirilib, rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish, ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish va ta'lim infratuzilmasiga sarmoyalarni jalb etishga qaratilgan islohotlar qabul qilindi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida asosida yangilangan Konstitutsiyada ham ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur islohotlar Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ilmiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun keng yo'l ochadi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:





1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Ta’lim to‘g‘risida” 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son - <https://lex.uz/docs/-5013007>

3. G‘afforov Sh. Ta’lim tizimidagi islohotlar buyuk yangilanishlar poydevoridir

7.09.2021 - <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimidagi-islohotlar-buyuk-yangilanishlar-poydevoridir>

4. Каюмов А. Коммуникационная компетентность - цель образовательного процесса. - 2007. - № 6.

5. O‘zbekiston respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. - <https://azkurs.org/10-mavzu-ozbekiston-respublikasida-talim-sohasida-amalga-oshir.html>





HUQUQSHUNOS PEDAGOGNING KASB ETIKASI

Usmonova Odina Habibovna

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi

maxsus fan oʻqituvchisi

3-darajali yurist. Tel. 90 277 35 72.

Email: odinausmonova47@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada huquqiy taʼlimga yoʻnaltirilgan oliy va proffessional taʼlim muassasalarida huquqshunos pedagoglarning oʻz kasbiy etikasiga rioya qilishlari haqida soʻz boradi. Shuningdek, huquqshunos pedagoglar oʻz kasbining maʼlum qoidalarga amal qilish orqali oʻquvchilarni huquqiy tartibda qaror qabul qilishga oʻrgatishlari lozimligi, bu kasb egalari oʻquvchilar bilan jonli muloqotda boʻlganliklari sababli ularning huquq va burchlarini tushuntirish bilan bir qatorda oʻzlari ham bu talablarga amal qilishlari kerakligi yuzasidan bahs yuritiladi.*

***Kalit soʻzlar:** pedagog, huquqshunos pedagog, kasb etikasi, jamiyat etikasi, pedagogik faoliyat, muomala madaniyati, huquqiy maslahat, huquqva burch.*

Pedagogning kasb etikasi mazkur faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxslarning oʻz kasbini amalga oshirishdagi huquqiy, maxsus va jamiyat etikasi bilan bogʻliq masala hisoblanadi. Har bir kasbda boʻlganidek, pedagogik faoliyatda ham maʼlum qoidalarga rioya qilish juda muhim. Sababi, oʻquvchilarning bilimlarni qay darajada egallashi hamda qanday tarbiya olishi pedagog xodimlarning oʻzini tutishi, muomala madaniyati, bilim saviyasi va shu kabilarga bogʻliq.

Huquqshunos pedagogning kasb etikasi esa huquqiy taʼlim muassasalarida oʻquvchilarning huquqlarini himoya qilish, oʻquv jarayoni haqida oʻquvchilarni xabardor qilish, oʻquvchilarni qatʼiy tartib-intizomga oʻrgatish, ularga toʻgʻri huquqiy maslahatlar berish va shu kabi maqsadlarni qamrab oladi.

Huquqshunos pedagogning kasb etikasiga rioya qilishlari muhimdir, chunki





bu kasb etikasiga rioya qilish orqali, o'quvchilarning huquqlarini himoya qilish va ularga huquqiy yordam berish, shuningdek, o'zgalarga huquqiy yordam ko'rsatishga o'rgatish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bu kasb etikasi, huquqiy muammolarga yechim topishda muhim kasbiy etik qoidalarni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Huquqshunos pedagogning kasb etikasiga rioya qilish, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatning huquqiy ma'lumotlaridan samarali foydalanish va kelajakdagi huquqiy maslahatlarni hal qilishga yordam beradi.

Huquqshunos pedagoglar o'z kasbining ma'lum qoidalarga amal qilish orqali o'quvchilarni huquqiy tartibda qaror qabul qilishga o'rgatishlari lozim. Bu, kasbiy faoliyatni huquqiy va etik normativlarga muvofiqlashtirish bilan bir qatorda amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Bu kasb egalari o'quvchilar bilan jonli muloqotda bo'lishadi va ularning huquq va burchlarini tushuntirish bilan bir qatorda o'zlari ham bu talablarga amal qilishlari kerak bo'ladi. Bu borada ular o'quvchilarni ma'lum tartib-qoidalarga o'rgatishi, huquq hamda burchlarini tushuntirishi va ularga maslahatlar berishlari lozim. Bugungi kunda barcha davlatlarning Konstitutsiyaviy qonunchiligida yuridik sohada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashkiliy jihatlaridan tashqari axloqiy mazmuni ham e'tiborga olingan, inson va uning hayoti, qadr - qimmat, manfaatlari oliy qadiryat deb tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson, uning hayoti eng oliy qadiryat bo'lib, amaldagi milliy qonunchiligimiz yuksak insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan boy mazmunga asoslangandir. Jumladan, Konstitutsiyamiz barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklari ularning jinsi, irqi, millati, tili, dinidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar teng huquqliligini ta'minlaydi. Ushbu normada insonparvarlik printsipli aks etganligini kuzatamiz. Insonparvarlik printsipli bosh qonun asosida yaratilgan va yaratilayotgan barcha qonunlarimizda markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur masalalarni bo'lajak yuristlar ongiga singdirish juda muhim. Buning uchun huquqshunos pedagogdan yuksak mahorat va shaxsiy namuna talab etiladi.

Huquqshunos pedagoglar o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini boshqarishni





o'rgatishadi. Shu sababli o'qituvchi bu borada o'zi shaxsiy namuna ko'rsatishi zarur. Bu o'quvchilarga qanchalik muhim ekanligini tushuntirishda yordam beradi. Yana shunisi ahamiyatliki, mazkur kasb egalari bo'lajak yuristlarga inson taqdiri bilan bog'liq masalalarni hal qilishda his tuyg'uga berilmaslik, tanish bilishchilik, qarindosh – urug'chilik, mahalliychilik yoxud millatchilik kabi tuyg'ularga berilmaslik odil sudlovni amalga oshirishning barcha bosqichlarida axloq normalariga og'ishmay rioya qilishni o'rgatadi.

Huquqshunos pedagoglar o'quvchilar bilan ochiq muloqotda bo'lishlari lozim. O'quvchilarning savollarini javobsiz qoldirmaslik hamda muhim huquqiy maslahatlar berishda aniq faktlarga suyanishlari muhim ahamiyatga ega.

Huquqshunos pedagoglar o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga ega bo'lishi mumkin. Bu ma'lumotlar shaxsiy sirlar, jismoniy, yuridik, siyosiy va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlarga o'ziga xos g'amxo'rlik talab etiladi.

Huquqshunos pedagoglar qonun va huquqiy tartiblarni tushunishlari va ularga rioya qilish kerak. Bu, o'quvchilarning kasb sir-asrorlarini egallashlarida va ularni huquqiy muammolarni hal qilishni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilan muloqotda bo'lishda, huquqshunos pedagoglar o'quvchilarning ma'lumotlarini himoya qilishi va ularning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmasligi muhimdir. Bu o'quvchilarda o'qituvchiga nisbatan ishonchni hamda o'z kasbiga muhabbatni rivojlantiradi.

Huquqshunos pedagoglar o'quvchilar ko'z o'ngida ularni huquqiy tartibda qaror qabul qilishga yo'naltiradigan, turli masalalarda maslahat bera oladigan, turli huquqiy-normativ hujjatlarni sharhlashga qodir bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'lishlari zarur. Aks holda talabalar nazarida mavqe va obro'ga ega bo'la olmaydilar. Bu esa pedagog faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqshunos pedagoglar o'quvchilar bilan ish olib borish davomida adolatsizliklarni oldini olish, ularning huquqlarini kafolatlash va ularning huquqiy talablari bilan hisoblashishga e'tiborli bo'lishlari lozim. Ya'ni, huquqshunos





pedagoglar o'quvchilarni huquqiy fanlarni o'zlashtirish va ularning huquqiy talablari bilan muloqotda bo'lishni ta'minlash uchun o'zlarida kasbiy ishonchni hosil qilishlari va buni amalda qo'llashlari kerak.

Umuman olganda, pedagogning kasb etikasi, o'quvchilar bilan ish olib borish davomida ularni qadrlash va tarbiyasiga ishonch bildirish asosida huquqshunos kasbiga mehr-muhabbatlarini kuchaytirish, egallayotgan kasbining naqadar muhimligini anglashlariga ko'maklashish orqali kelajakda shu kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishlariga zamin yaratadi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, huquqshunos pedagogning o'z kasbiy etikasiga rioya qilishi ularga o'quvchilar bilan ochiq muloqotda bo'lishni, ularning huquq va talablari bilan tanishishni, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishni va boshqa huquqiy masalalarni tushuntirishni o'rgatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Niyozov J. yuridik kadrlar; ularni tayyorlash tizimini takomillashtirish davlat va jamiyat taraqqiyotining muxim shartlari. //Huquq va burch. 2014. No7. B.40-4315.
2. Ochilov A. yuksak huquqiy tafakkur orzu-umidlarimiz ro'yobiga xizmat qiladi. // Huquq va burch. 2014. No7. B.7-916.
3. Raximov A. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim shartidir. // -T.: Huquq va burch. 2016 No8 –B 32-3520.
4. Safarov J. Yangi qonun, yangi tamoyillar qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan.// Huquq va burch. 2014. No7. B.26-2822.Tojiboev
5. M. Kalonov I. Yurist kasb etikasi –T.: TDyuI nashriyoti, 2013.-89b.
6. Isoqov H. Sud jarayonida advokatlik etikasi. // -T.: Advokat. 2016. No4 -S 10-137.





7. Исмаилов Б.И. Становление морально-этических стандартов государственной службы в зарубежных странах. Методическое пособие. /- Т. Центр повышения квалификации юристов. 2017.-128.

8. Мамедов А. Этическая сторона деятельности адвоката. // Адвокат. 2015 No2. С. 37-38.12.

Internet manzillari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali: www.gov.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz





ТРЕБОВАНИЯ К ТЕКСТУ ЮРИДИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ

Абдуллаева Муяссархан Салахиддиновна

Юридический техникум Ферганской области

Преподаватель русского языка для юристов

Юрист 3 разряда. Телефон 90 531 11 28.

@AbdullayevaMuyassarxon.

***Аннотация:** Соблюдение требований к тексту юридических документов имеет огромное значение для обеспечения их эффективности и правовой значимости. Ясность, четкость, логическая структура, краткость, точность, достоверность, грамматическая правильность и профессиональный тон - все эти аспекты являются важными при написании юридических документов.*

***Ключевые слова:** юридических документ, текст, ясность, четкость, логическая структура, краткость, точность, достоверность, грамматическая правильность, профессиональный тон.*

Требования к тексту юридических документов зависят от типа документа и его назначения. Ниже приведены некоторые общие требования, которые следует учитывать при создании любого документа:

Соблюдение требований к тексту юридических документов является крайне важным, поскольку:

1. Обеспечивает ясность и точность понимания документа: Юридические документы имеют огромное значение в правовой системе и могут влиять на жизнь людей и организаций. Неправильно составленный документ может привести к неправильному истолкованию его содержания и суждению ошибочных выводов.

2. Улучшает профессиональный имидж: Корректное использование





правильной грамматики, форматирование и терминологии при написании юридических документов помогает повысить профессиональный имидж юриста и доверие к его работе.

3. Улучшает эффективность коммуникации: Соблюдение требований к тексту юридических документов помогает создать четкую, логически связанную и легко понятную информацию для всех заинтересованных сторон.

4. Предотвращает возможные ошибки: Соблюдение требований к тексту юридических документов, таких как точность, логическое изложение и соответствие формату, может помочь предотвратить возможные ошибки и недоразумения при интерпретации документов.

5. Повышает уровень защиты: Юридические документы, соблюдающие требования к тексту, могут обеспечивать более высокий уровень защиты и укреплять правовую позицию и интересы сторон при рассмотрении их в суде или других юридических инстанциях.

Ясность и четкость являются важнейшими качествами текста юридических документов, которые помогают обеспечить правильное толкование и применение закона. Написание юридических документов должно быть основано на принципах ясности, точности и логической связности, чтобы информация, содержащаяся в документе, была понятной для всех заинтересованных сторон. Обеспечение ясности и четкости текста юридических документов помогает защитить интересы сторон, предотвратить ошибки и недоразумения, а также укрепить доверие к профессиональному имиджу юриста.

Логическая структура и последовательное изложение информации в юридических документах являются необходимыми элементами для обеспечения понимания и точного толкования текста. Правильное изложение информации помогает сделать документ легко читаемым, понятным и приводит к предотвращению недоразумений.

Логическая структура текста означает, что информация представлена в





последовательности, которая логически вытекает из предыдущей. Каждый пункт должен быть четко связан с другими, и последовательность этих пунктов должна быть логичной. Документ должен быть организован таким образом, чтобы читатель мог легко понять идейную структуру. Последовательное изложение информации в юридических документах означает, что каждый абзац, предложение и фраза должны быть связаны друг с другом и иметь ясное значение. Последовательность изложения должна быть логичной и иметь связь с предыдущими пунктами. При этом следует использовать ясный и понятный язык, избегая неясных или запутанных фраз. Для достижения логической структуры и последовательного изложения информации, юристы должны следовать определенной методике при написании документов. В начале документа следует определить цель и основные задачи документа, а затем определить последовательность изложения информации, начиная с наиболее важных пунктов.

Юридические документы должны быть написаны с помощью ясного и точного языка, чтобы избежать двусмысленности и понимания их неправильно. Также следует избегать излишнего использования юридических терминов, которые могут быть непонятны неспециалистам. Важно помнить, что цель написания юридических документов заключается не только в их правильном оформлении, но и в их понимании и использовании сторонами.

Краткость, точность и достоверность являются ключевыми аспектами при написании юридических документов. Краткость означает использование минимального количества слов, необходимых для точного выражения идеи. Чем более краткий документ, тем проще его понимать и использовать. Важно избегать излишней детализации и повторения информации, чтобы не загромождать документ и не усложнять его восприятие. Точность означает точное и точное выражение идеи или информации, без неясных терминов или двусмысленных выражений. Чтобы документ был точным, он должен быть написан ясным, понятным языком, используя соответствующую





терминологию и форматирование. Достоверность означает, что информация в документе должна быть точной и фактически верной. Юридические документы часто содержат информацию, которая может иметь серьезные последствия для сторон, которые с ними работают. Поэтому крайне важно убедиться, что информация, содержащаяся в документе, верна и подтверждена соответствующими доказательствами или источниками. Все три аспекта - краткость, точность и достоверность - взаимосвязаны и важны при написании юридических документов. Юристы должны стремиться к максимальной ясности, точности и понятности текста, чтобы обеспечить его легкость понимания и минимизировать возможность недоразумений или ошибок.

Грамматическая правильность является важным аспектом при написании юридических документов. Грамматически правильный текст улучшает понимание и уменьшает возможность недоразумений или ошибок при толковании документа. Юридические документы часто содержат сложные предложения, специфическую терминологию и формулировки, которые требуют знания грамматических правил. Ошибки в грамматике могут привести к несогласованности и неясности в документе, а также могут изменить смысл или интерпретацию некоторых положений. Важно убедиться, что грамматика документа соответствует стандартам языка, используемого в соответствующей юрисдикции. Некоторые юрисдикции могут иметь специфические правила для грамматики и орфографии, которые необходимо соблюдать. Также важно убедиться, что использование различных знаков препинания соответствует нормам и правилам применения в соответствующей юрисдикции. Поэтому, чтобы обеспечить грамматическую правильность в юридических документах, рекомендуется проводить проверку на грамматические ошибки, использовать правильные термины, формулировки и знаки препинания, а также убедиться в соответствии грамматических норм языка, используемого в соответствующей юрисдикции.

Профессиональный тон - это важный аспект при написании





юридических документов. Тон документа должен быть формальным, сдержанным и профессиональным. Он должен отражать серьезный и важный характер документа и оставлять впечатление надежности и авторитетности. Для того чтобы создать профессиональный тон, нужно избегать сленговых выражений, устной речи и слишком разговорного языка. Вместо этого используйте формальные выражения и термины, которые характерны для данной юрисдикции или области права. Также важно учитывать контекст и целевую аудиторию, для которой предназначен документ. Например, если документ адресован определенной категории лиц, такой как суд или налоговая служба, то он должен соответствовать их требованиям и использовать специфические термины и формулировки. Важно также убедиться, что документ не содержит каких-либо оскорбительных или недостойных высказываний. Все высказывания в документе должны быть справедливыми, точными и базироваться на фактах. Таким образом, профессиональный тон является неотъемлемой частью юридического документа, и он должен отражать серьезность и важность содержащейся в нем информации.

В заключение можно сказать, что соблюдение требований к тексту юридических документов имеет огромное значение для обеспечения их эффективности и правовой значимости. Ясность, четкость, логическая структура, краткость, точность, достоверность, грамматическая правильность и профессиональный тон - все эти аспекты являются важными при написании юридических документов. Важно помнить, что юридические документы имеют большое значение в жизни людей и организаций, поэтому они должны быть написаны максимально ясно и понятно для тех, кто будет ими пользоваться. Правильно оформленные документы помогают избежать недоразумений, конфликтов и споров, а также укрепляют доверие и авторитет в глазах клиентов и партнеров. Таким образом, соблюдение требований к тексту юридических документов - это не просто формальность, а необходимость для создания правовой базы, обеспечивающей защиту прав и





интересов всех заинтересованных сторон.

Список литературы

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son; 04.08.2022-y., 03/22/787/0708-son, 27.10.2022-y., 03/22/796/0966-son

2. М.Б. Жуков, А.В. Завьялов. "Юридические документы: теория и практика". Москва: Инфра-М, 2015.

3. Н.С. Сорокина, В.Н. Борисова, В.В. Соловьев. "Оформление документов в сфере государственного и муниципального управления". Москва: Издательский дом "Дело и сервис", 2016.

4. Г.В. Дорофеев, С.А. Жарков. "Оформление документов в юриспруденции". Москва: Издательство Юрайт, 2019.





МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШДА
СОЛИҚ МАЪМУРИЯТЧИЛИГИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ
ЙЎЛЛАРИ

Ҳайдаров Соҳибхон Ҳорун ўғли

Махмудов Худоёрхон Жамол ўғли

Annotatsiya: Mazkur maqola makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda soliq ma'muriyatчилигини самарали ташкил этиш йўллари mavzusini ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda bugungi kungacha makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda yo'ga qo'yilgan islohatlar haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *иқтисодий хавфсизлиги, иқтисодий инқироз, маъмурий босим, «ўзаро ҳамкорлик» усули, «Солиқчи тадбиркорга кўмакчи» тамойили.*

Мамлакатимизда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш масалалари давлат ислохотлари диққат марказида бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 августдаги тадбиркорлар билан бўлган учрашувида мамлакатимизда солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш борасидаги ислохотлар ва солиқ тўловчилар билан ўзаро ҳамкорлик тамойили бўйича амалга оширилаётган ислохотлар кўламига эътибор қаратилди. Дунё мамлакатлари иқтисодиётининг глобаллашув ва рақамлашиш жараёнлари иқтисодий хавфсизлик масалалари бўйича тадқиқотларга эътиборни янада кучайтирмоқда. Чунки ушбу шароитда мамлакат иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар янада ортади. Солиқ маъмуриятчилигини рақамлаштириш шароитида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш масалалари бўйича амалга оширилган тадқиқотларда солиқ қонунчилиги ижро механизмларининг ўрни ва аҳамиятига ижобий баҳо берилган.

Глобал пандемия жорий йилнинг март ойидан бошлаб дунё мамлакатлари иқтисодиётига, шу жумладан, бошқа Марказий Осиё давлатлари қатори Ўзбекистонга ҳам салбий таъсир кўрсата бошлади. Шу сабабдан,





Ўзбекистонда мана шу таъсирларни камайтириш ва иқтисодий инқирозни юмшатишга қаратилган тезкор чоралар кўрилди, 20 га яқин фармон ва қарорлар имзоланди. Инқирознинг салбий оқибатларини юмшатиш мақсадида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллабқувватлашга қаратилган иқтисодий чораларнинг дастлабки ва иккинчи тўплamlари жами қиймати 32,3 трлн. сўмдан ортиқни ташкил этди. Жумладан, Инқирозга қарши курашиш жамғармаси ташкил этилиб, мазкур маблағлар коронавирус инфекциясига қарши кураш бўйича тадбирларга йўналтирилди. Жорий йилнинг 17 июль ҳолатига мазкур жамғарманинг даромадлари 7,44 трлн.сўмни ташкил этди. Шундан, 7,32 трлн. сўм халқаро молия институтлари маблағлари ҳисобига, 123,5 млрд.сўм эса, давлат бюджети ҳисобига шакллантирилиб, жами сарфланган харажатлар миқдори 6,4 трлн.сўмни ташкил этди. Жумладан, ижтимоий соҳага 2,2 трлн.сўм, иқтисодиётни қўллабқувватлаш учун 2,0 трлн.сўм, коронавирус бўйича тадбирларни молиялаштириш учун 907,0 млрд.сўм, шифохона ва карантин мажмуаларини қуриш ва жиҳозлаш учун 684,0 млрд.сўм, сув таъминоти ва ирригация тармоқлари билан боғлиқ харажатлар учун 602,0 млрд.сўм сарфланди. Шу билан бирга, Иқтисодий фаолликнинг сезиларли пасайиши Давлат бюджети барқарорлигига хавф туғдиришини инобатга олиб, Давлат бюджетининг 2020 йилдаги параметрларини мақбуллаштириш чоралари кўрилди. Муҳимлик даражасидан келиб чиққан ҳолда долзарб ҳисобланмаган лойиҳа ва харажатлар кейинги даврларга кўчирилди.

И.Светков ўз тадқиқотларида давлат институтлари ва жамиятнинг солиқ соҳасидаги муносабатлар ташкил этиш тизимини қуйидаги учта усулга бўлиш мумкинлиги таъкидлайди: маъмурий босим нуқтаи назаридан; ҳуқуқий нуқтаи назаридан; манфаатлар нуқтаи назаридан. Лекин ХХІ асрда давлатларнинг солиқ маъмуриятчилигини ислоҳ қилиш тажрибалари бўйича олиб борган тадқиқотларимиз натижалари ҳозирда ушбу усуллардан мазмун ва сифат жиҳатидан тубдан фарқ қиладиган «ўзаро ҳамкорлик» усулини қўллаш





амалиёти кенг ривожланаётганлигини кўрсатмоқда.

Мамлакат харажатларини молиялаштириш учун зарур маблағларни жамлаш ва иқтисодиёт ривожланиш стратегияси тадбирларини молиялаштириш янги иқтисодий механизмларни шакллантираётган давлатимиз учун муҳим аҳамиятга эгадир. Амалга оширилаётган ислохотларда «Солиқчи тадбиркорга кўмакчи» тамойилига эътибор қаратилиши муҳим ижтимоий-иқтисодий аҳамият касб этмоқда.

Соҳадаги ислохотлар ва келажак концепциялар солиқ юкини оптимал даражага тушириш, давлат солиқ хизмати органлари ҳамда солиқ тўловчилар ўртасидаги ҳамкорлик муносабатларини янги кўринишга олиб чиқишни режалаштиради. Солиқ маъмуриятчилигининг самарадорлигини ошириш, солиққа тортиш жараёнларида харажатларни камайитиришга қаратилган. Солиқ тўловчилар билан амалга ошириладиган ишлар сифати давлат солиқ хизмати органлари томонидан тақдим этиладиган хизматлар уларнинг эҳтиёжлари ва талабларига қанчалик мос келишига боғлиқ. Бу эса ахборот ва кўрсатиладиган интерактив хизматлар доирасини кенгайтириш солиқ тўловчиларнинг ўз мажбуриятларини ихтиёрий равишда бажариш даражасини оширишнинг асосий омили ҳисобланади.

Ушбу соҳадаги ишларни тўғри ташкил этиш, солиқларни ўз вақтида ҳамда тўлиқ тўлашни назорат қилишни сезиларли даражада осонлаштиради, маъмурий харажатларни камайтиради ва ҳуқуқ бузарликка мойил солиқ тўловчилар тоифаси билан ишлашга йўналтирилиши мумкин бўлган ресурсларни кўпайтиришга ёрдам беради. Давлат солиқ хизмати органлари томонидан юридик шахслар, яқка тартибдаги тадбиркорлар ва фуқароларнинг солиқларни тўлаш бўйича конституциявий мажбуриятларни бажариш учун энг қулай шарт-шароитларни таъминлаш учун замонавий техник воситалардан фойдаланган ҳолда солиқ тўловчилар билан ахборот-тушунтириш ишларининг олиб боришда илғор шакллар ва усулларни амалиётга жорий этиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ





қўмитасининг soliq.uz сайтига бир кунда кирувчилар 33809 тани, ташриф буюрувчилар эса 3583 тани ташкил этади. Ушбу рақамлар солиқ тўловчиларнинг давлат солиқ хизмати органлари томонидан кўрсатилаётган хизматлардан фойдаланиш даражасининг ўсиб бораётганини кўрсатмоқда.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобуршоҳ Ибрагимов, ТМИ доценти, иқтисодиёт бўйича фалсафа доктори (PhD) https://uza.uz/uz/posts/soliq-mamuriyatchiligini-raqamlashtirish-soliq-tolovchi-bilan-hamkorlikni-qay-darazhada-taminlaydi_402178
2. Маликов Т.С. Солиқ ва имтиёзлар диалектикаси. (2–мақола) //Иқтисод ва ҳисобот. –1997. –№12.
3. Жўраев А., Маматов Б. Кичик ва ўрта бизнесни ривожлантиришда бозор инфратузилмаси Бозор, пул ва кредит.–2003. –№2.–Б. 43–47.
- 4.24.Жўраев А. Солиқларнинг бюджет тизими бўғинлариаро тақсимланиши //Бозор, пул ва кредит. –2004. –№11. –Б. 18–21.
4. Абдурахмонов О. Жисмоний шахслар мулкани солиққа тортишни такомиллаштириш Бозор, пул ва кредит. –2002. –№7.





РОЛЬ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СОЗДАНИИ ДЕЛОВЫХ ДОКУМЕНТОВ

Камолова Шахло Тиркашевна

Юридический техникум Ферганской области

Преподаватель русского языка для юристов

Юрист 3 разряда. Телефон 90 2721502

@shahlokamolova

***Аннотация:** Проблема речевой грамотности и ее роли в создании деловых документов является актуальной и востребованной в современном бизнес-мире. Корректная и эффективная коммуникация между бизнес-партнерами, клиентами и коллегами требует высокого уровня речевой грамотности. Недостаточное владение языком может привести к недопониманию, ухудшению деловых отношений, а также к снижению профессионального имиджа компании.*

***Ключевые слова:** речевая грамотность, ключевые аспекты, письма, отчеты, договоры, презентации, грамматическая правильность, стилистическая грамотность, лексическая точность*

Речевая грамотность - это необходимый навык в современном бизнесе, особенно в области деловой переписки. Создание эффективных деловых документов является ключевым элементом успеха в любом бизнесе, и некорректная, неграмотная переписка может привести к недоразумениям, ошибкам и потере времени и ресурсов. Поэтому речевая грамотность играет важную роль в создании деловых документов, и является неотъемлемой частью коммуникационных навыков, которые должен владеть каждый современный бизнесмен.

Цель данной работы - изучить роль речевой грамотности в создании эффективных деловых документов, определить ключевые аспекты, которые





необходимо учитывать при их создании, а также предоставить рекомендации по улучшению речевой грамотности для достижения лучших результатов в бизнесе.

Речевая грамотность включает в себя знание грамматики, правильное использование лексики, а также умение строить связные и логичные тексты. В деловой переписке, как и в любой другой коммуникации, правильное использование языка является важным фактором успеха. Ошибки в деловой переписке могут привести к недоразумениям, ухудшению деловых отношений и даже к потере клиентов или заказов. Важно понимать, что любое деловое письмо является отражением компании, поэтому к нему должен быть подход соответствующий. Кроме того, в современном бизнесе, где сотрудники и партнеры могут находиться в разных странах и культурах, важно уметь писать на разных языках, включая английский, который является международным языком деловой переписки. Таким образом, речевая грамотность является ключевым навыком в современном бизнесе и должна быть развита у всех сотрудников, связанных с деловой перепиской.

Создание эффективных деловых документов является важным элементом успешного бизнеса. Эти документы включают в себя письма, отчеты, договоры, презентации и другие документы, которые используются в процессе деловых отношений.

Существует множество видов деловых документов, которые используются в различных аспектах бизнеса. Некоторые из них включают в себя:

Письма: это могут быть письма клиентам, партнерам, поставщикам или другим заинтересованным сторонам. Письма могут содержать запросы на информацию, заказы на товары или услуги, запросы на встречу, подтверждение заказов и т.д.

Отчеты: отчеты могут включать в себя финансовые отчеты, отчеты о продажах, отчеты о производстве, отчеты о проектах и т.д. Они предоставляют





информацию о текущем состоянии бизнеса и помогают принимать решения на основе данных.

Договоры: это юридически значимые документы, которые устанавливают условия сделки между компаниями или между компанией и клиентом. Они могут включать в себя условия поставки товаров, услуг, аренды, продажи и другие соглашения.

Презентации: это документы, используемые для передачи информации или проведения презентаций. Они могут содержать графики, таблицы, диаграммы, фотографии и другие элементы, которые помогают проиллюстрировать ключевые идеи.

Счета-фактуры: это документы, используемые для выставления счетов и подтверждения оплаты товаров или услуг. Они содержат информацию о товарах или услугах, стоимости, налогах и других важных факторах.

Заявки: это документы, используемые для запроса товаров или услуг. Заявки могут содержать информацию о необходимых товарах или услугах, количестве, цене, сроках поставки и других деталях.

Уведомления: это документы, используемые для передачи информации о важных изменениях в компании, таких как изменения в продукции, персонале, ценах или другие события, которые могут повлиять на заинтересованные стороны.

Это лишь некоторые из типов деловых документов, которые могут использоваться в бизнесе. Каждый из них имеет свои особенности и требует определенного подхода при их создании. При создании деловых документов необходимо учитывать несколько ключевых аспектов. Во первых, необходимо определить цель и аудиторию документа. Это поможет сосредоточиться на самых важных аспектах и создать документ, который будет наиболее полезен для получателя.

Во вторых, необходимо собрать всю необходимую информацию и подготовить ее к использованию в документе. Это может включать в себя





данные о продукте или услуге, финансовые данные, информацию о конкурентах и другую важную информацию.

В третьих, необходимо убедиться в правильности использования грамматики, лексики и стиля письма. Деловые документы должны быть составлены четко и лаконично, с использованием ясного и понятного языка.

В четвертых, необходимо пройти проверку на ошибки и опечатки. Ошибки в деловых документах могут повлиять на восприятие получателем информации и оставить плохое впечатление о компании.

Наконец, важно иметь в виду сроки и приоритеты при создании деловых документов. Некоторые документы могут быть критически важными и требуют более высокого приоритета, чем другие. Следуя этим аспектам, можно создать эффективные деловые документы, которые будут способствовать улучшению бизнес-отношений и достижению целей компании.

Таким образом, речевая грамотность является необходимым навыком для создания эффективных деловых документов. Грамматическая правильность, стилистическая грамотность и лексическая точность играют важную роль в обеспечении ясности, точности и убедительности содержания деловых документов.

При создании деловых документов необходимо учитывать аудиторию, для которой они предназначены, и использовать соответствующий язык и терминологию. Кроме того, следует уделять внимание форматированию, правильной структуре документа и точности изложения информации.

Надлежащее владение речевой грамотностью способствует созданию профессионального и уважаемого имиджа бизнеса, обеспечивает эффективность коммуникации и повышает качество взаимодействия с партнерами и клиентами.

Список литературы

1. Белова, И. (2016). Речевая грамотность в современном бизнесе.





Российский журнал менеджмента, 14(1), 1-16.

2. Герасимова, И. (2015). Роль речевой грамотности в деловом общении. Вестник Московского государственного лингвистического университета, (694), 28-32.

3. Колесникова, Е. (2017). Речевая грамотность в современном бизнесе: проблемы и решения. Бухгалтерский учет, анализ и аудит, (1), 20-23.

4. Салеева, Л. (2018). Особенности деловой переписки на английском языке. Научный журнал КубГАУ, (144), 1-9.

5. Чудинова, Т. (2019). Речевая грамотность и эффективность бизнес-коммуникации. Экономические науки, 174, 158-161.

6. Шаламова, М. (2017). Речевая грамотность в современном бизнесе: проблемы и перспективы. Инновационная экономика: проблемы, перспективы, (1), 96-101.





TARJIMASHUNOSLIKNING PRAGMATIK JIHATLARI DUBLAJ VA EKRANDAN TASHQARI TARJIMA HAQIDA

Xaydarova Umida Tursunboyevna

(SamDCHTI magistranti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslikning ahamiyati va uning pragmatik jihatlari haqida soʻz boradi. Tarjimaning naqadar muhim ekanligi va pragmatika haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Tarjima va pragmatika.

Annotation: This article discusses the importance of translation studies and its pragmatic aspects. Information is provided on the importance of translation and pragmatics.

Key words: Translation and pragmatics.

Tarjimaning pragmatik jihatlari qanday degan savolga koʻplab olimlar javob izlaganlar, tarjimada ikkita omildan biri sifatida “pragmatik” tarjima va u tasvirlayotgan tildan tashqari voqelik oʻrtasidagi munosabatni bildiruvchi “yoʻnaltiruvchi”dan farqli oʻlaroq, oʻqituvchi yoki oʻquvchi tomonidan tarjimani qabul qilishini bildiradi. Tarjima butun dunyodagi odamlar oʻrtasida samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu bilimlarni uzatish uchun kurer, madaniy meros himoyachisi va global iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarurdir. Yuqori malakali tarjimonlar muhim ahamiyatga ega.

Epifit mikroorganizmlar o'simliklardan ajraladigan eruvchan yoki uchuvchan moddalar bilan oziqlanadilar va shu moddalarning kimyoviy tarkibiga bo'lgan spetsifikligi tufayli, o'simliklarning turli qismlarida to'planish xususiyatiga ega bo'ladilar. Epifit mikroorganizmlarning ko'payishida mikroorganizmlar hatto o'simliklar uchun o'ta foydali turlari ham o'simliklarda nazoratsiz ko'payaversalar, hech shubxasiz o'z xo'jayinlarini (o'simliklarni) nobud bo'lishiga, ildiz atrofidagi tuproqdagilari nazoratsiz ko'payganlarida esa, o'simliklar bilan ozuqaga raqobatli kurashning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lar edi. Ayniqsa, yosh o'simliklarda, mikroorganizmlarning miqdorini meyoridan oshib ketishlari juda zarar yetqazgan bo'lar edi. Yaxshiyamki, tabiatda bunday bo'lmaydi. Buning ikki sababi bor. Birinchidan, o'simliklar o'zlariga qabul qiladigan ozuqadan, asosan massa hosil qilish uchun, o'zlarining o'sishlari uchun, bir so'z bilan aytganda "ichki tashvishlarni" qondirish uchun foydalaniladi. O'simlikning tashqarisiga esa, juda kam miqdorda ajralib chiqadi va bu moddalar asosan mikroorganizmlarning oziqlanishi uchun sarflanadi. Ikkinchidan, normal mikroflorani haddan tashqari ko'payib ketishini chegaralab qo'yadigan omil, bu o'simlikning tabiiy immuniteti hisoblanadi. Epifit bakteriyalar o'simliklarning sirtida yashashga moslashgan bo'lib, ular odatdagi sharoitda o'simlik to'qimalarini ichiga kirmaydilar. Hozirgi vaqtda sog'lom o'simliklarning to'qimalarida mikroorganizmlarning bo'lishi yoki bo'lmasligi haqida ikki xil fikr bor. Ulardan birinchisi, sog'lom o'simlik to'qimalari steril, ikkinchisi esa, sog'lom o'simlik to'qimalarida turli xil mikroorganizmlar borligi misollar bilan tasdiqlangan.

Ko'plab o'simliklarning urug'laridan endigina maysa unib chiqadigan vaqtda mikroblarga qarshi moddalar ajralib chiqishi kuzatilgan. Shuning uchun ham,





urug'larni ba'zi mikroorganizmlar ekilgan ozuqa muhiti sirtiga terib chiqilganda, urug' atrofida bakteriyalarning o'sish zonasi yo'qligi kuzatiladi.

O'zlarining yashash sharoitlari bo'yicha epifit mikroorganizmlar o'simliklarning ichki qismlari bilan to'g'ridan-to'g'ri uchrashmaydilar va shuning uchun ham o'simliklarning ichki immunitet omillarining ta'siriga uchramaydilar. Ammo, o'simliklarning teri to'qimalaridan tashqariga ajralib chiqadigan fraksiyalar, har xil organik birikmalar, shu jumladan fitonsidlar ham saqlaydilar. Fitonsidlar saqlash xususiyati (uchuvchan va uchmaydigan fitonsidlar) deyarli barcha o'simliklarda ham bor desak, xato bo'lmaydi. Fitonsidlar immunitetning muhim omili hisoblanadilar va har xil kimyoviy tabiatga ega bo'ladilar.

Epifit bakteriyalarni maxsus tarkibga ega bo'lgan ozuqa muhitida o'stirib, tayyorlanga biopreparat bilan ishlov berib, Surxondaryo viloyati Denov tumanida fermer xo'jaliklari yer maydonlarida sinab ko'rilmogda va ijobiy natijalar kuzatilmogda. Bular, oddiy urug'ga nisbatan tez unib chiqishi, sovuqqa va kasalliklarga chidamlilik darajasi bilan farq qilmogda. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ozuqa muhitining tarkibi, epifit mikroorganizmlardan biomassa va turli xil fiziologik faol birikmalar ajratib olish maqsadida, ularni ko'paytirish uchun ishlatilishi mumkin ekanligi ham o'z tasdig'ini topgan.

Epifit mikroorganizmlarda o'simliklarning uchuvchan fitonsidlariga nisbatan yuqori darajada moslashuvchanligi borligini aniqlash maqsadida, ularni shu fitonsidlar ishtirok etayotgan sharoitda tuproq saprofitlari va ba'zi-bir ildiz mikrofloralari bilan taqqoslab o'rganib chiqilgan. Epifit mikroorganizmlar, fitopatogen bakteriyalardan nimasi bilan farq qiladilar?

Birinchidan, epifit mikroorganizmlar faqat o'simlikning sirtida yashaydilar va ular hujayra ichiga kira olmaydilar;

Ikkinchidan, fitopatogen mikroorganizmlar eng avvalo o'simlik to'qimalarining ichiga kirib oladilar va ularda kasallik chaqiradilar. Epifit mikroorganizmlar asosida biopreparatlar tayyorlanilib dala maydonlarida sinovdan o'tkazilmogda. Olib borilgan tajribalar bo'yicha qisqacha quidagilar.





Bug‘doy o‘simligini turli qismlaridan mikroorganizmlarni yuvib olishda uslubida steril holatdagi bintlik salftkadan (5x5 sm) yoki tayoqcha uchiga mustaxkam bog‘langan steril paketidan foydalandik. Ularni namlash uchun tampon yoki salftkani 2,0 ml steril fiziologik eritmadan foydalanildi. Buning uchun steril probirkaga 2,0 ml steril fiziologik eritma quyib, unga salftkani steril pensid bilan botirib namlab olinadi. Undan keyin steril pinset bilan salftkani eritma bilan tadqiqot obyektini probirkaga solinadi va salftka yordamida yuvib olish ishlari bajariladi. Bu ish bajarilgandan keyin, ishlatilgan salftkani shu probirkaga joylashtirish kerak. Tadqiqot obyektini sirtqi maydonini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Ajratib olingan kulturalarni morfologik belgilari I.S. Yegorov uslubiyoti bo‘yicha aniqlandi. Bakteriyalarni identifikatsiya qilish mikrobiologiyada umumqabul qilingan barcha usullar Badji aniqlagich yordamida bajarildi.

Laboratoriya sharoitida mikrovegetatsion tajribalarni o‘tkazish uchun “Epifit-BS” biopreparati va nazorat sifatida “Vitavaks” biopreparati hamda distillangan suv olindi. Bug‘doyning Kroshka navi steril tajriba o‘tkazish uchun vodorod peroksidi va etil spirti (1:1) bilan 3 minut davomida sterilizatsiya qilindi va steril distillangan suv bilan qayta qayta yuvildi. G‘o‘za va bug‘doy urug‘larini “Epifit-BS” biopreparati 108KOYE/ml ho‘jayra titri bilan inokulyatsiya qilindi. Keyin bug‘doy va g‘o‘za urug‘lari steril distillangan suv bilan namlangan Petri chashkasiga joylashtirildi. Termostatda 300S da 3-7 sutka davomida unib chiqish darajasi kuzatildi.

Keyingi tajribalarimizda hujayra titri 108 bo‘lgan “Epifit-BS” biopreparati bilan bakterizatsiya qilingan bug‘doy va g‘o‘za urug‘lari 400 gr plastmassa idishlarga ekildi. Inokulyatsiya qilinmagan g‘o‘za chigitidan nazorat sifatida foydalanildi. Tajriba 3 qaytariqda olib borildi. Tuproq namligini 60% da bo‘lganda 22-220S haroratda teplitsada 6-12 sutkada o‘stirildi. Unib chiqqan o‘simliklarga preparat ta’sirini aniqlash maqsadida poya uzunligi va ildiz uzunligi nazoratga nisbatan o‘lchab borildi. Umuman olganda juda yaxshi natijalar olinmoqda.

Xulosa. Kuzatuvlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklarning yer ustki





qismida yashovchi mikroorganizmlar uchun asosiy ozuqa manba bo'lib xizmat qiluvchi moddalar, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, aminokislotalar hamda mono- va disaxaridlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, epifit mikroorganizmlar uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlar, bu urug'dan o'simlikka o'tish xususiyatidir. Bu xususiyat epifit bo'lmagan mikrofloralarda uchramaydi. Epifitlarda mikroflora manbai faqat urug' bo'lishi, ikkinchi holatda esa, faqat tuproq bo'lishi mumkin. Bunday tadqiqotlar ko'plab o'tqazilgan va bir yillik o'simliklarni egallab oladigan mikroflora manbaini faqat o'simliklarning o'zlari (ularning urug'lari, o'simlik qoldiqlari), hamda tuproq bo'lishi kuzatilgan. Epifit mikroorganizmlar asosida biopreparatlar tayyorlanilib dala tajribalari o'tkazilib yaxshi natijalar olingan. O'simliklarning immunitetini ta'minlab turuvchi boshqa omillar qatori, epifit mikroorganizmlarni ham o'simliklarga atrof-muhitning turli ta'siriga to'sqinlik qiluvchi qalqon (to'siq) sifatida xizmat qilishi aniqlangan, bu esa bundan qishloq xo'jaligida unumli foydalanish kerakligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ananyeva YE.P. Morfo-biologicheskaya xarakteristika osnovix grupp bakteriy: uchebnoye posobiye // YE.P. Ananyeva. – SP-b, 2004. – S. 111.
2. Babyeva I.P. Pochvenniye drojji // I.P. Babyeva, S.YE. Gorin. – M.: Izd-vo MGU, 1989. – S. 336.
3. Muradasilova N.D. Patogennaya mikroflora semyan podsolnechnika v usloviyax zapadnogo Predkavkazya i sposobi snijeniya yeye vredonosnosti: Avtoref.diss. kand. biol. nauk / N.D. Muradasilova. Krasnodar, 2007. -21 s.
4. Isidorov V.A. Letuchiye videleniya rasteniy / V.A. Isidorov. – S.Peterburg.: Alga-Fond, 1994. 188 s.
5. Veyant R. Opredelitel netrivialnix patogennix gramotritsatelnix bakteriy (aerobnix i fakultativno-anaerobnix) // R. Veyant, U. Moss, R. Uiver, D. Xollis, Dj. Djordan, E. Kuk, M. Deynshvar. – M.: Mir, 1999. – S. 791.







**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN
FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI**

**Kattaqo'rg'on shahar
5-DMTT tarbiyachisi
Samariddinova Mahfuza**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'yin, o'yin faoliyati, jarayon, xususiyat.

O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g'oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o'zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar. A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o'yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o'yin faoliyatida o'zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo'lganlaridan so'ng mehnat faoliyatlarida ham ko'p jihatdan o'zlarini shunday namoyon etadilar». A.S.Makarenkoning bu fikri bolalarning o'yin faoliyatlari orqali ularda yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati naqadar katta ekanligiga ahamiyat bilan qarashni taqozo etadi.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning shakliga, ya'ni ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan, ma'lum malaka, ko'nikma hamda elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bularga esa bola faqat o'yin faoliyati tufayligina erishadi.





O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, san'at, xayol qilish, dam olish va xushchaqchalik manbalari ham mujassamlangandir. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi hamda bolalar talab qilayotgan darajadagi to'laqonli hayotni ta'min eta oladi.

Bolalar hayotini mazmundor qilish ko'p jihatdan tarbiyachilar hamda ota-onalarga bog'liq. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni vaqti-vaqti bilan sayohatga olib chiqib turishlari maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadi. Bolalar o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar. Odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki aktiv hamda ijodiy yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir. Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati, o'yinning umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribasi va faoliyat doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni (onasini, otasini va boshqalarni) va ularning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Bolalarning individual xususiyatlarini xususan ularning guruhliy o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Guruhliy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «Sotuvchi – xaridor» o'yinida bolalar sotuvchi, kassir, ishchi, xaridorlar rollariga bo'linib o'ynaydilar.

Demak, bog'cha yoshidagi bolalar o'yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega:

- 1) o'yin mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi;





2) bolalar o'yin faoliyatlarida milliy tuyg'uning aks etishi;

3) o'yin jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishidadir. O'rta va katta bog'cha yoshidagi bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an'analarga asoslanganligi;

4) bolalar o'yini jarayonida psixik jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, his-tuyg'u, irodasi, xarakteri va qobiliyatining namoyon bo'lishidir.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilishi mumkin bo'lgan o'yinlardan namunalar keltiriladi.

Bolalar uchun oddiy labirintlar: Bolalar, hatto juda yosh bolalar ham labirintlarni juda yaxshi ko'radilar va bu ham bolalarni rivojlantiradi. Avvalo, kirish va chiqish joylari ko'rsatilgan bolalar uchun oddiy labirintlarda yo'l izlash, keyin esa murakkabroqlarga o'tishadi. Bolaning maktabga tayyorgarligi mezonlaridan biri - qo'lning yozishga tayyorligi. Buning uchun bolalar turli yo'nalishlarda chizishadi, haykaltaroshlik qiladilar, yopishtiradilar, qirqadilar. Qo'lni yozishga tayyorlash uchun ko'pincha "Labirint" didaktik o'yinidan foydalaniladi.

Bolaning rivojlanishida, uni maktabga tayyorlashda muhim nuqta - voqealar ketma-ketligini aniqlashni o'rganishdir. Buning uchun "**Mantiq zanjirlari**" didaktik o'yini mos keladi. Kartochkalarni chop etish, kvadratlarga kesib olish va birinchi bo'lib nima kelishini va keyin nima kelishini aniqlash uchun taklif qilish kerak. Shu bilan birgalikda 6-7 yoshli bolalar uchun nutqni rivojlantirish sifatida mantiqiy tartibda joylashtirilgan rasmlarga ko'ra qisqa hikoya tuzishni taklif qilish mumkin.

"A" harfiga mos so'z top: Tarbiyachi savatchaga harflarni kartonga yopishtirilgan holida aralashtirib qo'yib qo'yadi. Ishtirokchi bola bitta harf tanlaydi va aynan o'sha harf bilan boshlanadigan so'zlarni aytishi kerak. Masalan, a harfini tanlasa, tarbiyachi bolaga a dan boshlanadigan so'z haqida aytib unga yordam berishi mumkin. Ukadan oldin tug'ilgan bolani kim deb ataymiz? O'g'il bolaga





qo'yiladigan ismlardan biri kabi. O'yin shartiga ko'ra har bir bola beshta so'z topib aytishi va o'sha so'zlarning ma'nosini ifodalab berishi zarur.

“Bu qaysi hayvon?”: O'yinni birinchi bo'lib tarbiyachi boshlab beradi. U biror hayvon mimikalarini qiladi, unga o'xshab yuradi, ovoz chiqaradi. Bolalar esa tarbiyachi tasvirlayotgan hayvonning nomini, uning uy hayvoni yoki hayvon ekanligini, u nimalar bilan ozuqlanishini aytib berishlari kerak. Tarbiyachidan keyin guruh ishtirokchilari navbatma-navbat xuddi shu tarzda hayvonlarni xatta-harakatlarini ifodalab beradilar.

“Nima haqida gapiryapman?”: Tarbiyachi biror narsa predmet, meva, sabzavot, hayvonning belgilari haqida gapiradi. Tarbiyalanuvchilar esa tarbiyachining gaplaridan gap nima haqida ketayotganini bilib o'sha narsaning nomini aytishlari kerak bo'ladi. Masalan, usiz kunimizni tasavvur qilolmaymiz. Uni nonushtada, tushlikda, kechqurungi ovqatda ham yeymiz. Yana unga sariyog' ham surib yeymiz. Oyingiz sizga uni ehtiyot qilish kerakligini har doim aytadi. Bu nima? (Tarbiyalanuvchilar bu narsa nonligini aytishlari kerak).

O'yinda tarbiyachi bolalarga yaqin narsalar masalan, shokolad, o'yinchoq mashina, qo'g'irchoq, hayvonlardan ayiq, quyon, kuchuk, mushuk haqida ham hikoya qilib berishi mumkin. O'yin so'ngida eng faol bo'lgan tarbiyalanuvchi rag'batlantiriladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning turli-tuman o'yin faoliyatlari sekin-astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o'yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta'lim elementlarini kiritadilar. Natijada bolalar o'yin orqali juda ko'p narsalarni bilib oladilar, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. Toshkent. 1974 y.
2. G'oziev E.G. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent ToshDU. 1995 y.
3. Krutetskiy V.A. Pedagogik-psixologiya asoslari. Toshkent-1976 y.





4. Nishonova Z.T, G.Alimova ‘Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent-2003 y.





TOG'-KON VA GEOLOGIYA MUHANDISLIGI.

KON SANOATI, QAZILMA ISHLARI.

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi

Abrayev G'ayrat Ismoil o'g'li

Tel:+998919033636 E-mail: abrayevgayrat@gmail

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi.

Boyxonov Aslbek Nurmamat o'g'li

Tel:+998919091929 E-mail: boyxonovasilbek5@gmail.com

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi.

Mixliyev Jo'rabek Musurmon o'g'li

Tel:+998934942824 E-mail:jurabekmikhliev@gmail.com

ANATATSIYA: Tog'-kon sanoati xavfli sanoat bo'lishi mumkin, ammo muhandislik va texnologiya butun dunyo bo'ylab yer osti va ochiq konlarni qazib olishda xavfsizlikni yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda.

KALIT SO'Z: . Kon sanoati, geografik mehnat taqsimoti, tog' -kon va geologiya muhandisligi, kon sanoati markazlari, konlarni loyihalash, tabiiy konlar', yer osti va ochiq konlar, mikro-portlovchi moddalar, xavfli g'orlar.

Kon sanoati, kon qazib olish sanoati — foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni yer ostidan kazib olish, dastlabki qayta ishlash — boyitish bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlari majmui. Kon sanoati kuyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: 1)





yoqilg'i (neft, tabiiy gaz, ko'mir, slanets, torf) qazib olish sanoati; 2) ruda (temir rudasi, marganets rudasi, rangli metallar, asil va noyob metallar rudalari, radioaktiv elementlar) qazib olish sanoati; 3) nometall qazilma va mahalliy qurilish materiallari sanoati (marmar, fanit, asbest, bo'r, dolomit, kvarsit, kaolin, gips, mergel, dala shpati, ohaktosh va boshqalarni qazib olish); 4) kon-kimyo (apatit, kaliy to'zlari, nefelin, selitra, oltingugurt kolchedani, bor rudalari, fosfat xom ashyosi qazib olish) sanoati; 5) gidromineral suvlar (mineral yer osti suvlari, suv ta'minoti va boshqa maqsadlar uchun suv) olish sanoati.

Kon ishi qad. davrlardan beri ma'lum. 18-asr oxiri — 19-asr boshlaridan jadal rivojlana boshladi. 20-asr oxirlariga kelib dunyoda yiliga 5 mlrd. t dan ziyod ko'mir, 3 mlrd.t dan ziyod neft, 2,3—2,5 trln. m³ tabiiy gaz va 1 mlrd. t temir rudasi qazib olinmoqda. Boshqa turdagi mineral xom ashyoni qazib olish hajmi kamroq. Jumladan, dunyoda keyingi vaqtda yiliga 2,2—2,3 ming tonna oltin qazib olinmoqda. Jahonda uran yetkazib beruvchi yirik mamlakatlar qatoriga Kanada, Avstraliya va JAR, kaliy to'zlari bo'yicha Kanada va Germaniya davlatlari kiradi. Temir rudasini qazib olish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham (AQSH, Kanada, Avstraliya, JAR, Shvetsiya, shuningdek, Rossiya va Ukraina), rivojlanayotgan mamlakatlarda ham (Xitoy, Braziliya, Hindiston, Venesuela, Liberiya) keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Xalqaro geografik mehnat taqsimotining chuqurlashishi va yanada rivojlanishi dunyoda 6 ta yirik Kon sanoati markazlarining shakllanishiga olib keldi. Ularning hissasiga jami qazib olingan xom ashyo va yoqilg'ining 2/3 qismi to'g'ri kelmokda. Shunday mamlakatlar qatoriga AQSH, Kanada, Avstraliya, JAR, Rossiya va Xitoy kiradi. Kon sanoati ko'pchilik boshqa mamlakatlarda ham rivojlangan. Lekin ularda xom ashyo yoki yoqilg'ining bir-ikki turi kazib olinadi, xolos. Jumladan, dunyoda ko'mir qazib olishda Polsha, mis rudasi qazib olishda Chili, qalay rudasi qazib olishda Malayziya, neft qazib olishda Fors ko'rfazi mamlakatlari yuqori o'rinlarni egallaydi.





O‘zbekiston Respublikasi jahonda Kon sanoati yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin olgan. Hozirga qadar O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 2,7 mingdan ziyod istiqbolli turli foydali qazilma konlari aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o‘z ichiga oladi. Muhim strategik manbalar — neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo‘yicha 155 ta kon, qimmatbaho metallar bo‘yicha 40 dan ortiq, rangli, nodir va radiaktiv metallar bo‘yicha 40, kon-kimyo xom ashyosi bo‘yicha 15 ta kon va boshqa qidirib topilgan va ishga tushirilgan.

Oltin, uran, neft, fosforitlarning razvedka qilingan zahirolari bo‘yicha O‘zbekiston jahonda yetakchi o‘rinni egallaydi. Respublika jahonda oltin zahirolari bo‘yicha 4-o‘rinda, mis zahirolari bo‘yicha 10—11 o‘rinda, uran zahirolari bo‘yicha 7—8 o‘rinda turadi (2001) (yana qarang Gaz sanoati, Rangli metallurgiya, Kumir sanoati, Neft sanoati, Oltin sanoati, Temir ruda sanoati).

Tog'-kon va geologiya muhandisligi

Konchilik va geologiya muhandislari, shu jumladan tog'-kon xavfsizligi bo'yicha muhandislar ishlab chiqarish sanoati va kommunal xizmatlar tomonidan ishlatiladigan ko'mir, metallar va minerallarni topadilar, qazib oladilar va tayyorlaydilar. Ular ishlab chiqarish va kommunal xizmatlarda foydalanish uchun foydali qazilmalarni xavfsiz va samarali olib tashlash uchun konlarni loyihalashtiradilar. Misol tariqasida ular ochiq va yer osti konlarini loyihalashtiradilar, yer osti ishlarida shaxtalar va tunnellar qurilishini nazorat qiladilar, foydali qazilmalarni qayta ishlash zavodlariga jo‘natish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

Ular shuningdek, xavfsizlik va atrof-muhit muammolari uchun mas'uldirlar va ko'pincha geologlar va metallurgiya muhandislari bilan potentsial yangi ruda konlarini aniqlash va baholash uchun ishlaydi. Boshqalar minerallarni ular aralashgan axloqsizlik, tosh va boshqa materiallardan ajratishga yordam beradigan yangi kon uskunalari yoki tizimlarini ishlab chiqadi. Tog'-kon muhandislari





ko'pincha bitta mineral yoki metallni, masalan, ko'mir yoki oltinni qazib olishga ixtisoslashgan.

Texnologiya bu sohada muhim rol o'ynaydi, chunki ba'zi muhandislar kon ishlarini rejalashtirishda talab qilinadigan texnologiyaga asoslangan modellashtirish ishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Vazifalar orasida seysmik petrofizikani aniqlash, tosh va minerallarni tayyorlash va vizualizatsiya qilish, magnitlanish, suv optikasi va masofadan zondlash, geo-xavf va geo-resurs tavsifini aniqlash bo'yicha kompyuter va sensor ishlari bo'lishi mumkin.



Tog'-kon yoki geologik muhandisning ish turi ko'pincha ular ichida yoki tashqarisida qanchalik tez-tez ishlashini aniqlaydi. Ko'pchilik foydali qazilma konlari yoki qum-shag'al karerlari kabi tog'-kon korxonalari joylashgan joylarda, chekka hududlarda yoki shaharlar va shaharchalar yaqinida ishlaydi. Boshqalar neft va gaz qazib olish yoki muhandislik xizmatlarini ko'rsatuvchi firmalar uchun ofislarda yoki joylarda ishlaydi.

Tog'-kon muhandislari kundan-kunga erning meliorativ holati, suv va havo ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish ustida ishlamoqda, bu esa ularni baholash uchun saytlarga tashrif buyurishga majbur qiladi. Ba'zi stol ustida ishlash mumkin bo'lsa-da, ko'pchilik kon muhandislari ish joylarida ko'p vaqt sarflashadi. Ayrim kon muhandislari uchun xalqaro sayohat imkoniyatlari mavjud, chunki





ularning tajribasi global asosda zarur.

Ko'pgina tog'-kon va geologiya muhandislari to'liq ish kuni ishlaydi va haftasiga 40 soatdan ko'proq ishlashi mumkin. Ba'zi kon qazish joylarining uzoqligi o'zgaruvchan jadvallar va haftalarga olib kelishi mumkin, ular odatdagidan ko'proq soat ishlaydi yoki bir necha hafta davomida yo'lda bo'ladi.



Ochiq usulda qazib olish - bu yerga chuqurroq qazilgan ochiq chuqurdan jinslar yoki minerallarni aniqlash va olib tashlash uchun yer usti kon usuli. Bu kerakli mineral er yuzasiga yaqin bo'lganda foydali texnikadir, aks holda er osti qazib olish talab etiladi.

Yuta shtatidagi Bingham Canyon koni ochiq usulda qazib olish ta'sirining ajoyib namunasidir. 1903 yilda Yuta Mis kompaniyasi Solt-Leyk Siti yaqinida topilgan porfir mis rudasini qazib olish va qayta ishlash uchun tashkil etilgan. Mulkdorlar bu yo'qotilgan korxona bo'lishidan ogohlantirilgan edi. Ammo ular noto'g'ri edi va natijada erishilgan muvaffaqiyat egasining ishni boshqarish uchun ochiq usulda qazib olish, bug 'kuraklar va temir yo'ldan foydalanish qaroriga asoslandi. Bugungi kunda kon dunyodagi eng katta texnogen qazilma va eng chuqur ochiq kon hisoblanadi. Shuningdek, u dunyodagi eng samarali konlardan biri ekanligini isbotladi.

Xulosa





Misol uchun, kompyuter tomonidan boshqariladigan mikro-portlovchi moddalar portlash bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga yordam beradi va robotlashtirilgan mashqlar odamlar uchun ko'proq xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan joylarda ishlay oladi. O'z-o'zidan boshqariladigan yuk mashinalari va ruda tashuvchilar odamlarning nafas olishiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan joylarda materiallarni tashishni boshqarishi mumkin. Robotlar esa qazib olingan materiallarning texnologik tasdiqlanishini ta'minlovchi ruda namunalarini tahlil qilish uchun ishlatilishi barchamizga ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi birinchi jild. Toshkent,(2000-2005)
2. Konchilik ishi asoslari. N.H.Sagatov. Toshkent 2016
3. Yer ostikonchilikishlari texnologiyasi. I.Mislibayev, F.Umarov
Toshkent 2020





**QATLAMLARNI QIYA STVOLLAR ORQALI SHTOLNYALARGA
ARATISH ORQALI TOPPISH**

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi

Bo'riyev Ilyos Muhiddin o'g'li

Tel:+998919706768 E-mail: dasaasas777@gmail.com

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi.

Abdusattorov Shoxmuhammad Abduxoshim o'g'li

Tel:+998957730301 E-mail: Shoxmuhammad104@gmail.com

Termiz muhandislik-texnologiya insitituti talabasi.

Madibraimov Xolmamat Nimatullo o'g'li

Tel:+998949319909 E-mail: Xolmamat9909@gmail.com

Annotatsiya:Qatlamlarni qiya stvollar bilan ochishda yer yuzidan qatlam oqish yo'nalishi bo'yicha birinchi gorizontning pastki chegarasigacha, taxminan, shaxta maydonining o'rtasidan uchta qiya stvol o'tiladi, ulardan bittasi bosh, qolgan ikkitasi yordamchi stvollar hisoblanadi. Shaxta maydonining o'lchamlari oshib borgan sari o'tiladigan qiya stvollar soni ham ko'payib boradi.

Kalit so'zlar: stvollarni, kapital, ko'mir qazish, kvershlaglar, konveyerlar, shtrek, gezen, shamollatish sxemasini, rekonstruksiya, gorizont, vertikal stvollar, stvol posangili, klet qurilmasi, sanoat maydoni.

Ko'p sonli qiya stvollarni o'tish shaxtani shamollatish sxemasining samarali bo'lishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Qatlamlar dastasini qazishda yordamchi ochuvchi lahimlar sifatida, ko'pincha, kapital yoki qavat kvershlaglaridan foydalaniladi.





Stvollar, asosan, ko`mir qatlamidan o`tiladi. Qatlam og`ish burchagi 180 gacha bo`lganda bosh stvol konveyerlar bilan, og`ish burchagi katta bo`lganda skipli ko`targichlar bilan jihozlanadi.

Bosh stvoldan 30 m masofada unga parallel o`tkazilgan ikki yordamchi stvolning bittasi yuklar, uskunalar va materiallarni shaxtaga tushirish hamda ko`tarish uchun xizmat qilsa, ikkinchisi odamlarni tashish (shaxtaga tushirish va chiqarish) ishlariga mo`ljallangan bo`ladi. Shaxta maydonining yuqori chegarasi bo`ylab stvollardan har ikki tomonga qavat shamollatish shtreklari, qavatning pastki chegarasi bo`ylab esa, tashish shtreklari o`tiladi. Tashish shtrek-larining stvollar bilan tutashish joylarida stvol atrof qo`rasi barpo etiladi. Agar qavat to`g`ri yo`nalishda qaziladigan bo`lsa, stvoldan.



Ko`mir qazish uzluksizligini ta`minlash uchun birinchi qavat zaxiralari qazib tugatilguncha ikkinchi qavatni barvaqt qazishga tayyorlab qo`yish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun stvollarni ikkinchi qavat tashish shtrekigacha chuqurlashtiriladi. Stvollardan har ikki tomonga qavat tashish shtreklari va qirquvchi pechlar o`tiladi, yangi stvol atrof qo`rasi barpo etiladi. Ikkinchi qavat zaxiralarini qazishda birinchi qavat tashish

shtrekidan shamollatish shtreki sifatida foydalaniladi. Uchinchi va undan keyingi qavatlarni tayyorlash ham yuqoridagi tartibda bajariladi. Foydali qazilmani qazish kavjoyidan yer yuzigacha tashish quyidagi tartib va transport vositalari orqali





amalga oshiriladi: qazib olingan ko`mir qazish lahimlari bo`ylab sidirg`ichli konveyerlar bilan tashish shtrekiga eltib beriladi, tashish shtrekiga kelib tushgan ko`mir lentali konveyer yoki elektrovoz va vagonchalar yordamida stvol atrof qo`rasiga tashiladi, yuk ko`targich qurilmalari esa, ko`mirni stvol orqali yer yuziga chiqarib beradi. Yer yuziga yaqin gorizontaal va oqish burchagi kichik bo`lgan

qatlamlarni ham ikkita qiya stvollar bilan ochish mumkin. Faqat bunda qiya stvollar foydali qazilma yotqizig`idan emas, uni o`rab olgan foydasiz kon jinslaridan o`tiladi. Stvollardan biri konveyer bilan, ikkinchisi esa, sim arqonli tashish vositasi bilan jihozlanadi.

Yotiq qatlamlar dastasini ham qiya stvollar bilan ochish mumkin. Buning uchun muhofaza seliklarida yo`qotiladigan ko`mir miqdorini kamaytirish va stvollarni saqlashni yaxshilash maqsadida ularni (stvollarni) dastaning eng pastki qatlamidan

o`tkaziladi, yuqoridagi qatlamlar kvershlaglar va gezenklar o`tish bilan ochiladi.

Foydali qazilma konlarini qiya stvollar bilan ochish vertikal stvollarga nisbatan qator afzalliklarga ega: shaxta maydonini ochish va yer yuzini jihozlash bilan bog`liq bo`lgan dastlabki xarajatlarning nisbatan kamligi; shaxtani ekspluatatsiyaga topshirish muddatining qisqaligi; stvollar ko`mir qatlamidan o`tilganda qo`shimcha tekshirish ishlari natijalari asosida kerakli ko`rsat-kichlarni olish va yo`l-yo`lakay qazib olingan ko`mirdan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi; yer osti transporti sxemasining soddaligi va uni to`la konveyerlashtirish imkoniyati borligi. Shuningdek, bu usulning o`ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Ular quyidagilar: bir xil chuqurlikda yotgan qatlamni

ochishda qiya stvolning vertikal stvolga nisbatan anchagina uzunligi, shu tufayli stvolni saqlashga sarflanadigan xarajatlarning birmuncha ko`pligi; stvol atrof jinslarida kon bosimining kuchliroq namoyon bo`lishi; qiya stvol ustahkamlagichlarining havo harakatiga qarshiligi yuqori bo`lishi; sim arqonli ko`tarish uskunasi yoki yuk o`tkazish (tashish) qobiliyati kichikligi. Tog` yon-bag`ri





tepaliklarga joylashgan konlar, agar vertical hamda qiya stvollar bilan ochish texnik jihatdan mumkin bo'lmagan yoki iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan hollarda, shtolnyalar orqali ochiladi. Shtolnyani o'tish joyini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi: shtolnyaning og'zi atrofida texnikaviy bino va inshoot larni joylashtirishga yetarli maydon mavjudligi; sanoat maydonchasi va shtolnya og'zigacha yo'l qurib keltirish imkoniyatlari; shtolnyaning og'zi vodiya suv ko'paygan vaqtda uning mumkin bo'lgan ko'tarilish balandligi chizig'idan yuqorida joylanishi va boshqalar. Shu bilan bir qatorda, shtolnyani shunday joydan o'tkazish kerakki, kon zaxirasining katta qismi shtolnya gorizontidan

yuqorida joylashgan bo'lib, uni yuqoriga ko'tarishsiz va yer osti suvlarini mexanik qurilmalarisiz yer yuziga chiqarishni ta'minlagan holda, qazib olish imkoniyati yaratilgan bo'lsin. Konlarni shtolnyalar bilan ochish usuliga qatlamning og'ish burchagi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yotiq qatlamlarni ochishda vodiya asosi sathidan kapital shtolnya o'tiladi, u shaxta maydonini ikki qismga bo'ladi. Ulardan biri shtolnya gorizontidan yuqoridagisi – bremsberg qismi, ikkinchisi uklon qismi deyiladi.

Markaziy-chetlangan shamollatish sxemasini qo'llash uchun kapital shtolnyadan tashqari tashish gorizontidan ancha yuqorida shamollatish shurfi yoki shtolnya o'tiladi. O'ta qiya va tik qatlamlarni ochishda kapital va shamollatish shtolnyalaridan tashqari, shtolnya gorizontidan yuqoriga joylashgan qatlam qismini ochish uchun qo'shimcha ochuvchi lahimlar sifatida gezenklar hamda qavat kvershlaglaridan foydalaniladi. Ayrim hollarda, agar shaxta maydonining yuqori chegarasi bilan yer yuzi o'rtasidagi masofa kichik bo'lsa, gezenk o'rniga yordamchi shamollatish stvoli o'tilishi ham mumkin. Tog' yon-bag'riga joylashgan o'ta qiya qatlamlarni ochishda gorizontlar bo'yicha yer yuzi bilan qatlamgacha bo'lgan masofa qisqa va yer yuzi relyefi qulay imkoniyatlarga ega bo'lsa, u holda shaxta maydonini qavat shtolnyalari bilan ochish mumkin

bo'ladi. Shtolnya gorizontidan pastda joylashgan shaxta maydonining qismi ko'r stvollar o'tish orqali ochiladi. Bu ochish usuli «Sharg'un» shaxtasi maydonini





ochishda qo'llanilgan. Shaxta maydonini shtolnyalar bilan ochish usuli eng sodda va iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Shu sababli har qanday

hollarda ham, agar konning kon-geologik, kon-texnik sharoitlari imkon bersa, ushbu ochish usulini qo'llash tavsiya etiladi. Shaxta maydonini aralash ochish usulida bosh (asosiy) qiya stvollar va yordamchi vertikal stvollardan foydalaniladi.

Qazibolingan ko'mir konveyerlar bilan jihozlangan qiya stvollar orqaliyer yuziga chiqariladi, yordamchi vertikal stvollar esa odamlarni, materiallarni, uskunalarni shaxtaga tushirish va shaxtadan yer yuziga chiqarish, shuningdek, shamollatish ishlariga xizmat qiladi.

Shaxta maydonining aralash usuli jahon konchilik amaliyotida

keng tarqalgan bo'lib, u, odatda, yer yuziga yaqin joylashgan va

Yotiq (a) va tik (b) qatlamlarni kapital (1) va gacha bo'lgan qatlamlar shaxta maydonlarini ochishda qo'llaniladi. Bu ochish usulida har bir bosh va yordamchi ochuvchi lahimlarning afzalliklaridan to'la foydalanish mumkinligi tufayli, ko'p holatlarda, u iqtisodiy tomondan samarali usul hisoblanadi.


Boshqacha qilib aytganda, aralash ochish usuli turli texnologik vazifalarga mo'ljallangan lahimlar komplekslarini muayyan sharoitda yotgan qatlamlar shaxta maydonini ochish maqsadida omilkorona sintez qilishdan iboratdir. Shaxtalarni bir necha bor rekonstruksiya qilishasosida yangi gorizontlarni ochish natijasida eski shaxtalarda ham aralash ochish usuli uchrab turadi. Ohangaron ko'mir konini yer osti usulida qazib olayotgan 9- shaxta bunga misol bo'la oladi (4.13- rasm).

Hozirgi vaqtda KRU-260 rusumli lentali konveyer bilan jihozlangan qiya stvol bosh ochuvchi stvol bo'lib, unga yan qo'shimcha bir uchli sim arqonli ko'targich ham o'rnatilgan. Stvolning uzunligi 480 m va amaldagi ko'ndalang kesim yuzasi 11,6 m²

Shaxta markaziy sanoat maydonchasiga joylashgan vertical stvoldan yordamchi ochuvchi lahim sifatida foydalaniladi. Stvolning diametri 4,5 m, chuqurligi 94,3 m. Bu stvol posangili klet qurilmasi bilan jihozlangan bo'lib, shaxtaga odamlar, materiallar va boshqa yuklarni tushirish hamda chiqarish,



Shaxtaning markaziy sanoat maydonidan taxminan 950 m janubi-g'arb yo'nalishda chuqurligi 125 m va amaldagi diametric 4,5 m bo'lgan stvol o'tkazilgan. Bu stvolga ikki kletli ko'tarish qurilmasi o'rnatilgan va u yordamchi ishlarni bajarish hamda shaxtaga toza havo yuborishga xizmat qiladi kombinatsiyalashgan ochish sxemasi:



- Ishlatilgan havoni yer yuziga chiqarib tashlash markaziy sanoat maydonchasiga joylashgan yuk va odamlarni tashishga mo'ljallangan qiya stvol orqali amalga oshiriladi. Stvolning uzunligi 160 m, amaldagi ko'ndalang kesim yuzasi 6,5 m².

Lentali konveyer bilan jihozlangan qiya stvollar yordamida shaxta maydonini aralash usulda ochish skipli ko'tarish qurilmalari bilan jihozlangan vertikal stvollarga nisbatan qator afzalliklarga ega: ko'mirni qazish kavjoyidan to yer yuzigacha tashishning uzluksizligini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, ko'mir

qazishning progressiv potok texnologiyasidan foydalanishgimkon yaratadi; kon ishlari xavfsizlik darajasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi; transportning



texnologik zanjirini soddalashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Islomov O.I., Shoraxmedov SH.SH. Umumiy geologiya T., «Ukituvchi» 1971 yil.*
2. *Kuznetsov S.S. Geologiya ,UzSSR «Urta va oliy maktab», davlat nashriyoti,T., 1960.*
3. *«Geologiya lugati»UzSSR FA nashriyoti T.,1958.*
4. *Ananyev V.P., Peredelskiy A.V. Injenernaya geologiya. Iz-vo «Vo`sshaya shkola», M-1980.*





ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ – ЖЕНЬШЕНЬ.

Кобилова Дилноза Зариповна ,

Базарова Жамила Алижоновна

Фелиал Казанского Федирального университета в городе Джизак

студентка направления Фармация

Преподаватель по биохимии.

Аннотация: в статье описывается лекарственное растение Женьшень, его полезные свойства, так же широко употребляемость в медицине.

Ключевые слова: женьшень, адаптоген, медицина, ареал, панаксозид.

В настоящее время лекарственное растение Женьшень, широко используется в области медицины. В основном применяется как адаптоген и в качестве общетонизирующего средства. В Корее и в Китае корень женьшеня также используют в приготовлении пищи. Традиционная китайская медицина утверждает, что препараты женьшеня продлевают жизнь и молодость. Род имеет разорванный ареал, основная часть которого находится на востоке Азии, а один вид (женьшень пятилистный) произрастает на востоке Северной Америки. Ареал женьшеня вьетнамского охватывает Центральный горный район Вьетнама[1.1]. Травянистое многолетнее растение от 30 до 70 см, живущее до 100 лет и более. Корень женьшеня представляет из себя вертикальное короткое коренвище, от которого отходит ветвистый, сочный, стрелковидной желтовато – белый, мясистый, слегка ветвистый корень бледно - желтого цвета.

В корне содержатся тритерпеновые сапонины, называемые панаксодизидами А, В, С, D, Е, Р. В остальных аралиевых эти гликозиды тетрациклических тритерпенов даммаранового ряда отсутствуют. У панаксозидов А, В, С агликоном является панаксатриол. Панаксодизиды, относятся к классу тритерпеноидов. Панаксозид С извлечен из травы и





плодов женьшеня. Кроме того, в корнях найдены эфирное масло панацеи, панаксовая кислота, представляющая собой семь жирных кислот: стеариновой, пальмитиновой, лауриновой и олеиновой, тростниковый сахар, алкалоиды, жирное масло, фитостерины, слизи, пектиновые вещества, крахмал, смолы, дубильные вещества, витамины группы В, аскорбиновая кислота. По данным китайских исследователей найдено значительное содержание серы, фосфора, микроэлементов Ca, Mg, K, Al, Se, Fe, Sr, Mn, Ba, Ti. Препараты женьшеня характеризуются значительной широтой терапевтического действия. Поскольку они нетоксичны, могут применяться в течение длительного времени. Установлено, что корень женьшеня является одним из сильнейших центральных нервной системы, превосходящим по эффективности смесь фенамина с прозергином, но, в отличие от последних, он не характеризуется побочностью действия и отрицательными последствиями, не нарушает сна, повышает работоспособность, в том числе, в условиях ночного бодрствования. Настойка женьшеня, принимаемая внутрь, увеличивает секрецию желчи, концентрацию в ней желчных кислот и билирубина, повышает чувствительность глаз человека к свету в процессе темновой адаптации. Женьшень обладает общетонизирующим и общеукрепляющим действием. Стимулирует работу ЦНС, помогает бороться с усталостью. Повышает артериальное давление. Способствует нормализации гормонального фона [1,2]. Женьшень для мужчин применяется при расстройствах половых функций. Исходя из вышесказанного, можно сделать вывод, что лекарственное растение женьшень, помогает укреплять здоровье человека, лечит эректильную дисфункцию, продлевает жизнь. В данный момент, женьшень успел широко распространиться в Республике Узбекистан, так как число потребителей стало намного больше. В настоящее время потребление энергетических напитков вызывает негативные проблемы для организма человека, поэтому я хотел бы подчеркнуть использование лекарственных средств женьшеня таким образом.





Литература:

1. Сайт: milapharma.ru. Женьшень обыкновенный. [1.2]
2. Сайт: ru.m.wikipedia.org. Женьшень – Википедия.[1.1]





FACTORS OF IMPROVING CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE GERMAN LANGUAGE

Shamsiddinov Daniyor

Student of Navoi State Mining and Technologies University

Yakhoyeva Gulnora Bakhtiyorovna

Associate Professor of Navoi State Mining and Technologies University

Annotation: Today, the development of the creative activity of our country's students based on the requirements of the world community, the training of personnel who can freely communicate in foreign languages, as well as the wide use of the achievements of world civilization are being created, and the material and technical base is continuously being enriched, it is revealed in this monograph. "Increasing the quality and efficiency of higher education institutions based on the introduction of international educational standards and assessment of the quality of education" was set as a priority task. As a result, the possibility of teaching languages integrated into subjects is expanding in higher education institutions.

Keywords: factors, improving, creative activity, students, process, teaching, German language

Globalization and integration processes in the field of education in the 21st century imply the emergence of new approaches to the organization of the educational process in higher educational institutions. Integration processes in education mainly determine the current state of teaching foreign languages, help to revise its content. Therefore, in the process of introducing new standards, studying the content of education at the university becomes especially relevant.

It should be noted that the content of the training usually means a set of educational tasks, information and exercises that ensure the acquisition of certain knowledge and practical skills, as well as the formation of important professional characteristics of the student.





As the content of teaching any subject is determined by the goals set by the society at each stage of its socio-economic and cultural development, we consider it appropriate to dwell on the modern interpretation of teaching foreign languages.

The purpose of teaching foreign languages in higher education institutions is to acquire the language in practice, at the same time, to develop a student who is able to live and create in the changing world, to be competitive, to join the world community. These abilities are formed in the process of mastering different types of competences: linguistic, communicative, cultural and methodological, they are interrelated.

Teaching a foreign language, like any other subject, if the foundations of teaching are based on certain rules derived from basic laws, it is a direct means of student formation and contributes to the goal of didactics - constant and conscious mastering of its content. By learning a foreign language, students acquire the ability to analyze, generalize, specialize, distinguish between necessary and sufficient conditions, define concepts, make judgments, and find ways to solve given educational tasks. All this helps students to develop their monologic and dialogic speech skills, the indicators of thinking development are clarity, precision, order, reasonableness, brevity, and consistency.

Learning a language requires a lot of effort and time from every student. Educational work skills acquired at the same time give us the opportunity to effectively master the skills of performing other types of work, and the ability to do any job well requires great effort and responsibility. When properly taught, students develop observation, attention, concentration, initiative, and persistence. Teaching a foreign language increases mental activity, makes students think about their activities throughout the lesson, how to maintain interest in the studied material.

The main goal of teaching a foreign language in higher education institutions is communication. The formation of communicative competence, the ability to get enough information when reading foreign language texts, the ability to understand the interlocutor, at the same time, the ability to express one's opinion, point of view,





orally and in writing, are part of the student's active creative activity.

According to some scholars, the components of the educational content are knowledge of a certain language material (grammar, phonetics, vocabulary, spelling), topics for reading, texts, skills, competences, speaking, language concepts that do not exist in the native language. understood. At the same time, the content of education is considered as a complex dialectical unit formed by the interaction of a certain method of educational material (subject content) and the teaching process.

For a long time in didactics, the content of education was considered mainly in connection with subjects that study the basics of science. This partially explains the lack of a single approach to defining the components of the educational content in the foreign language teaching methodology and reveals the conflict of the issue of the components of the educational content. Nevertheless, components such as linguistic knowledge, material, skills and competences, topics, texts, and linguistic concepts that are not specific to the mother tongue appear in many classifications of educational content.

It is known that language material, its assimilation is the basis for the development of not only oral speech and reading skills, but also based on various linguistic materials, but also in the form of texts or sound texts in graphic design. is also formed on the basis of consistent integrity. Therefore, the texts on the topic related to the content of the training are legally included.

Nowadays, the issue of knowledge and skills is solved a little differently. First, it should be noted that the main units of content for a foreign language with oral communication are types of speech activity: in writing (letter); expressing speech in oral form (speaking); listening comprehension (listening); perception and understanding (reading) of written speech, texts. Each type of speech is based on knowledge, skills, and is used as a complex and specific creative skill system aimed at solving various communication problems.

